

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**



**FILOLOGIYA FAKULTETI
O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI
5111200 - o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta’lim yo‘nalishi
4- “A” kurs talabasi
XUDAYBERGANOVA ZILOLA IBRAGIM QIZINING
BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Mavzu: «O‘ZBEK PUBLITSISTIKASIDA QORAQALPOQ KOLORITINI
YARATISH TAJRIBASIDAN
(Guliston Matyoqubova va boshqa ijodkorlar misolida)»**

Talaba:	Z. Xudayberganova
Ilmiy rahbar:	f.f.d., prof., K. Quramboyev
Kafedra mudiri:	f.f.n., dots. S.Matyakupov

*O‘zbek tili va o‘zbek adabiyoti kafedralari qo‘shma yig‘ilishining 2018- yil
30- maydagi 5- bayonnomasi bilan himoyaga tavsiya qilindi.*

NUKUS – 2018

Xudayberganova Zilolaning «O‘zbek publististikasida qoraqalpoq koloritini yaratish tajribasidan (Guliston Matyoqubova va boshqa ijodkorlar misolida)» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga davlat attestatsiya komissiyasining qarori bilan «_____» ball («____%») qo‘yildi.

«_____» _____ 2018- yil

DAK kotibasi:

Sh.Aldasheva

MUNDARIJA

1. Kirish	4
-----------------	---

I BOB. PUBLITSISTIKADA MILLIY KOLORITNI YARATISH TAJRIBASIDAN

1.1 Guliston Matyoqubova publitsistikasida xorijiy mavzu talqini	8
1.2 Shoira publitsistikasida she'riy ohanglar	18

II BOB. GULISTON MATYOQUBOVA PUBLITSISTIKASIDA VATAN VA QORAQALPOQ QADRIYATI TALQINI.

2.1. Vatan va qoraqalpoq mavzusi publitsistik talqinda	25
2.2. Suhbat-maqola ilmiy-badiiy publitsistikasi namunasi sifatida	34

III BOB. TA'LIM BOSQICHLARI DASTUR VA DARSLIKLARIDA MAVZUNING BERILISHI

3.1. Mavzuni ta'lim jarayonida amaliyotga tatbiq etish bo'yicha metodik tavsiyalar. Dars ishlanma	44
---	----

Xulosa	55
---------------------	-----------

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	58
---	-----------

KIRISH. BITIRUV MALAKAVIY ISHIMIZNING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. O'zbek publitsistikasi o'ziga xos tarix va an'anaga ega. Uning ildizlari asrimizning boshlariga borib taqaladi desak to'g'ri bo'lsa kerak. Publitsistik chiqishlar o'tgan asrning boshlarida bo'lib turgan A.Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Ibrat, A.Avloniy, Bexbudiy kabi adib va ma'rifatchilar bu janrning taraqqiyotiga o'z xissalarini qo'shdilar. Xatto asrning boshlarida Zokirjon Furqat ham "Turkiston viloyati" gazetasida publitsistik maqolalari bilan qatnashib turgani mutaxasislargama'lum. O'sha zamonlarda publitsistik asarlarning asosiy vazifasi xalqni ma'rifatga chaqirish, ommani savodli qilishdan iborat bo'lgan desak, bu ham o'sha davrning haqiqati G.Gulos, A.Qahhor, K. Yashin, Uyg'un kabi adiblar ham o'z davrida matbuotda maqolalari bilan qatnashib borishiga xissa qo'shganlar.

Sho'rolar davrida ham bu janrda salmoqli asarlar yozildi, professional jurnalistlar, publitsistik asarlar yozadigan avlod yetishib chiqdi. Xususan, o'tgan asrning 50- yillaridan keyin bu janrning taraqqiyotida jiddiy siljishlar bo'ldi. K. Aliev, Y. Shamsharov, Sh. Rashidov, Zulfiya, O. Yoqubov, N. Safarov kabi shoir va yozuvchilarning publitsistik maqolalari e'lon qilinib turganini aytish joiz. Mustaqillik yillariga kelib publitsistika janri har tomonlama, ham shakl, ham mazmun jihatidan yangilanib bordi. Istiqlol yillarida yurtimizda amalga oshirilayotgan xalqimizning fidokorona mehnatini ulug'lovchi publitsistik maqolalar, ocherklar yozilgani muxlislarga yaxshi ma'lum. O'zbekiston yoki Qoraqalpog'iston hayotida biror katta ishlar amalga oshsa, albatta, u birinchi marta publitsist yozuvchilar, muxbirlar qalamida aks etadi. Shu ma'noda bu janrga salmoqli xissa qo'shib kelayotgan bir qator publitsistlar borki, bugungi kunda ularning tajribalarini umumlashtirish, janrning qanday saviyada rivojlanishini ko'rsatib berish bugungi adabiyotshunoslik ilmining dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolgani ham haqiqat. Bu janrning taraqqiyotiga katta xissa qo'shib kelayotgan ijodkorlarning borligi kishini quvontiradi. Mana shunday qalamkashlardan biri, shoir, publitsist, mohir ijodkor Qoraqalpog'iston xalq shoiri Guliston Matyoqubovadir. U tom ma'nodagi professional jurnalist. Toshkent davlat

universitetining jurnalistika fakultetini tamomlagan. Uzoq yillar davomida tuman va respublika gazetalarida faoliyat ko'rsatdi va hozir ham faoliyatini davom ettirmoqda.

Guliston Matyoqubovanning barcha publitsistik asarlari bir joyga to'plansa, bir emas, bir necha kitob bo'lishi shubhasiz. U Qoraqalpog'istondagi eng faol publitsist ijodkorlardan biri sanaladi. Garchi shoiraning shoirlik va boshqa janrlardagi asarlari qisman o'rganilgan bo'lsa-da, publitsistik faoliyati yetarli darajada o'rganilmagan degan fikrdamiz. Agar bu mavzu tadqiq etilsa, G. Matyoqubova talantining bir qirrasini, ya'ni bu publitsistik qobiliyati ochilsa, ayni paytda Qoraqalpog'istondagi publitsistika janrining o'ziga xos jihatlari ham ma'lum darajada oydinlashadi. Va eng asosiysi, publitsistikada milliy koloritni berish, aytaylik, qoraqalpoq koloritini yaratishdagi o'ziga xoslik kabi xususiyatlar ochilishi mumkin. Shu ma'noda bu mavzuni o'rganish juda dolzarb va muhim deb o'ylaymiz?

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Qoraqalpoq adabiyotida publitsistika janrining rivojlanish bosqichlari ma'lum ma'noda o'rganilgan maqolalar, kitoblar ham bosilgan. Masalan, yaqinda T. Masharipov qoraqalpoq adabiyotida publitsistika janri bo'yicha maxsus tadqiqot yozdi, kattagina kitob ham nashr qildirdi. Va bu tadqiqoti uchun filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olishga muvaffaq bo'ldi. Qoraqalpog'istondagi o'zbek publitsistikasi, ya'ni shu janrda qalam tebratib kelayotgan ijodkorlar haqida ishlar yetarli emasdek. Jumladan, G. Matyoqubovanning publitsistik asarlariga alohida tadqiqotlar bag'ishlangan deb aytish qiyin. To'g'ri, K. Quramboyev va G. Quramboyevalarning muallifligida Toshkentda va Qoraqalpog'istonda chop etilgan "Gul bor Guliston ichida" degan kitobida shoirning bu publitsistikasi o'rganilgan ixcham bir maqola bor. Boshqada ilmiy manbalarda, G. Matyoqubovanning ijodiga bag'ishlangan o'zbek va qoraqalpoq olimlari va ijodkorlarining maqolalarida bu mavzuga doir fikrlar uchraydi, muallifning publitsistik chiqishlariga baho berilgan. Bizning nazarimizda bu ishlar yetarli emas. Shoiraning publitsistik asarlari alohida maxsus tadqiqotni talab etadigan mavzu. Ayniqsa, muallif chiqishlarida qoraqalpoq koloritining aks

etilishi masalalari ochiq turgan mavzulardan biri. Shunday ekan bu masala yanada kengroq doirada o'rganilishi zarur degan xulosaga keldik.

Tadqiqotning maqsadi. Bitiruv malakaviy ishimizdan ko'zlangan asosiy maqsad, Qoraqalpog'istonda publitsistik janrining rivojlanishidagi o'ziga xoslikni ko'rsatish, qolaversa o'zbek tilli ijodkorlar, jumladan, G. Matyoqubovaning turkum publitsistik maqolalari misolida bu janrning istiqboli va publitsistikada milliy koloritni berish masalalarini ko'rsatib berishdan iborat.

Tadqiqotimizning vazifalari. Yuqorida ham qisman ta'kidlaganimizdek bosh maqsadimiz, Qoraqalpog'istonda yashab o'zbek tilida ijod qilib kelayotgan so'z ustalarining qoraqalpoq publitsistikasi taraqqiyotiga qo'shgan xissasini aniqlash. Bu yo'nalishda ular qoraqalpoq hayotini, koloritini berishdagi mahoratini ochib berishdan iborat. Shu bilan birga G. Matyoqubova publitsistikasi misolida o'zbek publitsistikasiga bu adibning qo'shib kelayotgan xissasini izohlashdan iborat deb o'ylaymiz.

Tadqiqotning obyekti. Ushbu bitiruv malakaviy ishimizga tahlil uchun, asosan, Guliston Matyoqubovaning publitsistik maqolalarini jalb qildik. Muallifning "Muhabbat yurti", "Vatan ruhi", "Uyg'onish nashidasi" va boshqa kitoblardagi publitsistik maqolalari tahlil obyekti bo'lib xizmat etdi. Zarurat bo'lgan o'rinda boshqa publitsistik yozuvchilar ijodiga ham murojaat etdik.

Tadqiqotning predmeti. Ishimizning tahlil predmeti G. Matyoqubovaning maqolalari, "Jayhun yoqasida o'sgen boyterak", "Buyuklik kelmoqda O'zbekistonga" va boshqa suhbat-maqolalari ham tadqiqotimiz predmeti bo'ldi.

Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari. Bitiruv malakaviy ishimizga publitsistika nazariyasi va amaliyotiga doir ilmiy kitoblar rasmiy xujjatlar metodologik asos bo'ldi. Bu sohada to'plangan ilmiy tajribalar, shu yo'nalishda mutaxassislar tomonidan nashr qilingan kitoblardagi nazariy qarashlar, chiqarilgan ilmiy xulosalar va ularning amaliyotda qo'llanilayotgani to'g'risidagi manbalarga ham murojaat etdik.

Ishning ilmiy yangiligi. Garchi publitsistika janri, aytaylik o'zbek va qoraqalpoq adabiyotida publitsistika janriga bag'ishlangan ishlar yozilgan bo'lsa-da,

mavzu o'rganilgan bo'lsa-da, Qoraqalpog'istondagi o'zbek tilida qalam tebratayotgan ijodkorlarning bu janrdagi faoliyati deyarli o'rganilmay kelmoqda. Jumladan, G. Matyoqubovanning she'riyati, dostonlari, qissalari, dramalari haqida tadqiqotlar yozilgan bo'lsa-da, muallifning publitsistikasi alohida tadqiqot mavzusi bo'lgan emas edi. Shu ma'noda bitiruv ishimiz kam o'rganilgan bu sohaga ozmi-ko'pmi xissa bo'lib qo'shilsa maqsadimizga erishgan bo'lamiz.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Publitsistika janri bugungi kunda o'zbek adabiyotida ham, qoraqalpoq adabiyotida ham, eng faol janrlardan biriga aylandi desak mubolag'a emas. Ayniqsa, qoraqalpoq publitsistikasi jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda deb ayta olamiz. Shunday ekan bu mavzuni o'rganish, tajribalarini umumlashtirish, eng asosiysi, qoraqalpoq publitsistikasida koloritining yaratilishini tadqiq etish ishimizning yangi yondashuvi va amaliy ahamiyati deb o'ylaymiz.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi. Ma'lumki, har qanday ilmning ahamiyati amaliyotga joriy qilinishi mezon bilan belgilanadi. Shunday ekan, ushbu tadqiqotimizdagi publitsistikaga doir fikrlarimiz, Guliston Matyoqubovanning bu sohaga xissa qo'shib kelayotganligi to'g'risidagi qarashlarimiz shu soha bilan qiziquvchilarga ozmi-ko'pmi foydasi tegishi mumkin degan fikrdamiz.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Ishimiz kirish va xulosadan tashqari uch bobdan iborat. Har bir bob ikki faslga bo'lib o'rganilgan. Ishimizning oxirida mavzu bo'yicha foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati ham ilova qilindi. Tadqiqotimizning umumiy hajmi 59 betdan iborat.

I BOB. PUBLITSISTIKADA MILLIY KOLORITNI YARATISH TAJRIBASIDAN

1.1. Guliston Matyoqubova publitsistikasida xorijiy mavzu talqini

Guliston Matyoqubovaning nasrdagi faoliyatini nega aynan publitsistik asarlari tahlilidan boshlamoqchiman. Gap shundaki, u Toshkent davlat (hozirgi O'zbekiston Milliy) universitetining jurnalistika fakultetida tahsil olgan, professional jurnalist. Sohaning ham nazariy, ham amaliy jihatlarini yaxshi biladi. U hikoya va qissadan oldin publitsistik maqolalar, ocherklar yozib tajriba to'pladi. Publitsistikasi ham she'riyatidek rang- barang, mavzulari, talqin yo'nalishi xilma- xil. Aksariyati O'zbekiston va Qoraqalpog'istonning markaziy nashrlari va gazeta- jurnallarida bosilgan. Ikki respublika jamoatchiligi, mutaxassislar, muxlislari sinovidan o'tdi. Guliston Matyoqubovaning adabiyot maydoniga ilk qadamlari omadli bo'ldi. Matbuotda e'lon qilingan asarlari bilan muxlislari nazariga tushdi.

Muallifning ko'pchilik publitsistik maqolalari o'zbek, qoraqalpoq va rus tillarida e'lon qilingan. Bir turkumi "Muhabbat yurti" (2002) kitobidan joy oldi. Bu to'plami uning nasrdagi birinchi ko'lamdor kitobi. Adabiy- badiiy publitsistik maqolalar, ocherk va hikoyalar, "Oq so'qmoqlar" qissasi, nasrning boshqa janrlaridagi bir necha katta-kichik proza asarlari kitob mundarijasini tashkil etadi. To'plam bilan tanishgan o'quvchi shoiraning nasrda ham qalami o'tkir, yozuvchilik mahorati ham yetilgan ijodkorligiga amin bo'ladi. "Muhabbat yurti" kitobining O'zbekiston Yozuvchilari uyushmasida taqdimoti o'tkazilgani, atoqli o'zbek adiblari davrasida muhokama qilinib, ijobiy baholangan u kitobning badiiy salohiyatidan darak beradi. Muhimi, muallif mohir publitsist, ocherki, qissa va hikoya janrlarida ham erkin yozishga qodir yozuvchi ekanligini ushbu kitobi misolida dalilladi. To'plam yuzasidan matbuotda aytilgan fikrlar, yozilgan taqrizlar yana bir e'tirofning ko'rinishi.

Publitsistika adabiyotning mustaqil janri. O‘ziga xos ijod tili. Kundalik hayotdan nafas oladi. Hozirjavoblik publitsistikaning bosh xususiyati. Guliston Matyoqubovaning har bir publitsistik asari bugungi ijtimoiy-siyosiy hayotga hamohang, davr nafasi bilan sug‘orilgan. “Muhabbat yurti” dagi barcha adabiy-badiiy maqolalar shu fazilati bilan diqqatga sazovor. Ayniqsa, ikki turkum maqolalar Guliston Matyoqubova publitsistikasining go‘zal namunalaridir. Biri “Buyuklik kelmoqda O‘zbekistonga”, ikkinchisi, “Jayhun yoqasida o‘sgan boyterek”(Qoraqalpog‘istonning davlat madhiyasi shunday misralar bilan boshlanadi). Ikki turkumga kirgan maqolalar ham mustaqillik yillarida yozilgan. Birinchi turkumda sobiq sho‘rolar tuzumi inson haq-huquqini paymol qilib, xo‘rlagani, milliy qadriyatlarni taxqirlagani, shaxsni o‘zligidan mahrum qilishga urinishlar, insonga bepisandlik kabi illatlarni muallif o‘z hayotiy tajribalari, ko‘rgan –bilganlari misolida afsuslanib yozadi. Istiqlol bergan ne‘matga shukronalik aytadi. (“Uzoq va yaqin kunlar”, “Xalq yodi”). “Eng aziz meros” maqolasida vatanda yashash, vatanga xizmat, vatanni qadrlash, ulug‘lash har bir fuqaro uchun muqaddas burch ekanligi, istiqlool bergan baxtni asrash fuqarolik vazifa tarzida talqin qilindi. Muallif bir o‘rinda yozadi: “Biz mustaqillik bergan ulug‘ baxtga quvonib shukronalar qilar ekanmiz, vatan tushunchasining naqadar ardoqli va mo‘tabar ekanligidan boshlarimiz osmonga yetar ekan, shu xokisor vatanimiz uchun nimalar qilyapmiz, qo‘limizdan nimalar keladi-yu, biz uni qanday qilib shu yurtning rivojlanishiga sarflaymiz. Men o‘ylaymanki, shu savol barcha-barchamizni qiynab, xotirjam va loqayd bo‘lishimizga yo‘l qo‘ymay turishi kerak”.

Bu oddiy chaqiriq, da'vat yoki iqror, e'tirofgina emas, katta mas'uliyat, vazifa hamdir.

Guliston Matyoqubova ijodiy faoliyatining yana bir ibratli tomoni bor.

Shoira o‘zining she’riy, nasriy va sahna asarlari bilan faqat o‘zbek adabiyotidagina emas, ayni chog‘da, qoraqalpoq adabiyotida baravar xizmat qilib kelmoqda. Shu boisdan ham uning asarlari har ikki respublikada yetarli

darajada e'lon qilinmoqda. O'zbek, qoraqalpoq va rus tillarida Nukus va Toshkentning eng nufuzli nashriyotlarida chop etildi. Har ikki qardosh adabiyotga baravar xizmat qilib kelayotgan Guliston Matyoqubova badiiy tilning she'riyatdagi ahamiyatini teran anglab qalam tebratgan shoiralardan biridir. Uning she'rlari dostonlarining tili juda jozibali, lirik ijod rolini tuyg'ularini jozibali ifodalaydigan badiiy qurol sifatida o'quvchi ko'z oldida namoyon bo'ladi.

Guliston Matyoqubova yurtimizda jamoat arbobi, mas'ul rahbarlik vazifalarida ishlab kelayotgan shaxs sifatida ham ma'lum. Ijodkor uchun bu qaysidir ma'noda imkoniyat ham. Respublikaning turli burchaklari, yoki chet ellarga xizmat safari, muallifga yozilajak asarga material to'plash uchun sharoit tug'diradi. Uning chet davlatlarda yoki Respublika ichkarisidagi safarlari, adabiy- madaniy tadbirlarga ishtiroki xech qachon izsiz ketmaydi, biror badiiy asariga material bo'ladi. Masalan, muallifning xalqaro mavzudagi ikki adabiy-publitsistik maqolasi safar taassurotlariga asoslanib yozilgan. Biri "Yurt baxtini aytgani bordim" (Pekingda bo'lib o'tgan Butunjahon xotinqizlarning IV- konferensiyasi haqida), ikkinchisi "Nasl - nasabli yurt farzandlarimiz" (Istanbulda bo'lib o'tgan XABIBAT 2-Xalqaro anjuman taassurotlari) deb nomlanadi. Ikki asar ham badiiy publitsistika janriga xos.

"Yurt baxtini aytgani bordim" publitsistik maqolasining yozilish uslubiga ko'ra , mustaqil hikoyaga ham o'xshab ketadi. Safar taassurotlari, faktlarning badiiy tasviri o'quvchini zeriktirmaydi. U ekspozitsiyadan boshlanib sekin-asta real voqealarga ulanadi. Pekinga qadar vagondagi sakkiz kunlik yo'l taassurotlari, ko'p davlatlardan anjumanda qatnashish uchun borayotgan xotinqizlar bilan muloqotlar, suhbatlar, ona-yurt sog'inchi , psixologik holatlar ifodasi tabiiy chiqqan. Poyezd Rossiyaning qator shaharlari, Mongoliya chegaralaridan o'tib, Xitoy hududiga kirib boradi. Vagon derazalaridan atrofga razm soladi. Rossiyaning maftunkor tabiati, qalin o'rmonlari, Baykal ko'lining mavj urayotgan to'lqinlari , tabiatning mo'jizaviy manzaralari shoiraga zavq beradi, ilhomi she'rga aylanadi.

Baykal oqimida navvomrang to‘lqin,
Shishaday yuzidan o‘pging keladi,
Uzun archalarning kelishgan bo‘yin,
Ohista erkalab shamol yeladi...
Insonga, osmonga, tog‘larga, toshga,
Yoyilar tonglarning moviy ro‘moli,
Vagon darchasini yopgan pardadan
Sirg‘alib kiradi quyosh hayoli...¹

She’r aslida o‘n band. Qolgan bandlarida ham shoiraning tabiat go‘zalligidan olgan zavqi ramzli ma’noda, poetik obrazlarda chiziladi. Mongoliya zaminining go‘zalligi ham shoirani maftun etadi. Muallif, avvalo, bu manzarani nasrda chizadi: “Yam- yashil yaylovlar. Gala- gala bo‘lib yurgan qo‘y-qo‘zilar, o‘sha yashillik bilan mavjuddir. Odamlarni ham juda oddiy, kimdir poda haydayapti, kimdir yaylovlarga qurilgan uychalar atrofida mashg‘ul...Yaylovlardagi oppoq chodirlar, sigir sog‘ishga chog‘lanib ketayotgan suluv qiz, yaylovlar orasida sharqirab oqayotgan loyqa suvi, daryo, otlarning jilovlarini tortib, keng yaylovlarni to‘ldirib yilqilar ketidan choptirayotgan o‘spirin...”

Manzara juda go‘zal chizilgan. Xorijiy yurtning turmush tarzi, tabiatining o‘zgachaligi, odamlariga xos milliy belgilar tasvirida sun’iylik yo‘q, hammasi tabiiy. Muallifning nasrda peyzaj yaratish mahorati aks etgan. Mongol hayotiga tegishli aytganlaridan ko‘ngli to‘lmaganda shoir dil izhorlarini yana she’rga soladi.

Po‘lat izlarida moviy vagonning,

Ezilib, yanchilar sokin hayollar.

¹G. Matyoqubova. Muhabbat yurti. Toshkent. 2002y. 28-bet.

Oppoq chodirini mongol qizining,
Qo'riqlar bu yerda moviy shamollar.
Ko'm- ko'k tepalikda otlar uyuri,
Oq chodir tomonga qarab kishnaydi.
Osmonlarida mongol uyining
Quyosh zarralari mangu qishlaydi...

G.Matyobubova biror xorijiy mavzuda asar yozmoqchi yoki biron chet el hayotini ta'riflamogchi bo'lsa, o'z Vatanini ham unutmaydi. O'zga yurtni qanchalik maqtamasin, ona zamini afzalliklaridan, go'zalligidan faxrlanish hislarini ham berib boradi. Bu an'ana "Yurt baxtini aytgani bordim" publitsistikasida xam mavjud. "Poyezdimiz Rossiya o'rmonlari oralab o'tar ekan, - deb yozadi muallif, - maftunkor tabiat manzaralari emas, ona yurtning har xil mevalari, g'arq pishgan oltin bog'lari ko'z o'ngimda gavdalanadi, ayniqsa, paxta dalalari oy nurida to'lishib, oppoq chanoqlarga jon bag'ishlayotgandir..."

Shoira Mongoliya tabiati, yigit-qizlarining xatti-harakatlariga qanchalik maftun bo'lmasin, baribir ona yurt manzaralari hayolidan ketmaydi. Va bir o'rinda yozadi: "...qaysidir jihatlar bilan qoraqalpoq kengliklari, Qoratog' etaklari, Qizilqum cheksizliklarini esimga soldi".

Muallifning Vatanga mehri, sadoqati shunday yoqimli. Buyukligini, beqiyos yurt ekanini targ'ib- tashviq qilishdan charchamaydi. Bu fazilat Pekin anjumani ishtirokchilari, dunyoning turli davlatlaridan kelgan xotin-qizlar, jumladan, muxbirlar bilan suhbatlarda, savollarga qaytargan javoblarda yanada ko'rkamlashadi. U Pekinda kim bilan uchrashsada, suhbatlashsada, yurt baxtidan so'zlaydi. Mustaqillik bergan erkinlik, ozodlik ne'matlarining xalqi taqdiridagi ahamiyatini, qadriyatlarni tiklash, o'zlikni anglash, ayollar va

bolalar hayotidagi ezgulik tomon tub burilishlarni, bir soʻz bilan aytganda, buyuk kelajak sari dadil odimlayotgan Oʻzbekistonning yutuqlarini faxr bilan gapiradi. Dunyoning turli mamlakatlarida siyosiy toʻqnashuvlar, ocharchilik va qashshoqlik, ayollar va bolalar ahvolining tangligi, ijtimoiy-iqtisodiy hayot darajasi, ilm-bilim salohiyati kundan-kunga pasayib borayotgan bir davrda, bu muammolar Oʻzbekistonda allaqachon yechimini topgani, xalqimiz barcha sohalarda tarixiy gʻalabalarni qoʻlga kiritib, tinch va farovon yashayotgani toʻgʻrisidagi fikrlar, har bir Vatandoshimizni gʻururlantirishi shubhasiz.

Mazkur maqolada konferensiya tafsilotlariga doir boshqada muhim maʼlumotlar, dalillar va raqamlar, inson huquqi bilan bogʻliq xalqaro muammolar, ularning yechimiga tegishli takliflar va tavsiyalar toʻgʻrisidagi muallif kuzatishlari, tahlillari va xulosalari ham berilganki, bu bir jihatdan, G. Matyoqubovaning ijtimoiy-siyosiy salohiyatini, keng doirada fikrlash qobiliyatini anglatga, ikkinchidan, publitsist-yozuvchi pozitsiyasi naqadar mustahkamligini koʻrsatadi. Safar taassurotlarining mana bunday yakunlanganida muhim asos bor: “Bu anjumanda Respublika nomidan, xalqimiz nomidan, ishtirok etganim, Xitoy eliga Oʻzbekiston baxtini aytgani borganim, shuncha mamlakatlar vakillariga yurtimni tanita olganim, men oldimga kuygan maqsadga erishganim”.

Darhaqiqat, G. Matyoqubova Vatanning bir fuqarosi, ijodkori, fidoyisi sifatida ona yurtini chet elga tanitishga munosib xissa qoʻshdi. Xalqaro mavzuda asar yozib, Vatanga xizmat qilishning ibratini koʻrsatdi. Shunday ekan, “Yurt baxtini aytgani bordim ” nafaqat shoira ijodi, balki xalqaro oʻzbek publitsistikasining yaxshi ulgilaridan biri desak, xato boʻlmas.

Kitobdagi xalqaro mavzuga bagʻishlangan “Nasl-nasabli yurt farzandlarimiz” degan ikkinchi maqola ham mazmun-mohiyatiga koʻra birinchiga juda yaqin. Muallif Istanbul safari misolida xorij minbarida Vatan haqida yana bir bor faxr bilan gapirish, yozish imkoniga ega boʻladi. Nasl-

nasabli yurtning azaliy qadriyatlari, asrlar davomida shakllangan betakror milliy an'analar taraqqiyotimizga qanot bo'layotgani borasidagi qarashlarini ilhom bilan qog'ozga tushiradi. O'qigan kitobxon erkin va farovon yurt farzandi ekanligidan g'ururlanadi. Muallif ikki xorij davlatiga safari taassurotlaridan shunday xulosa chiqaradi: "Pekin, Turkiya safarlari orqali, birinchidan, men dunyoni ko'rgan, jahon mintaqasiga ko'zim tushgan bo'lsa, ikkinchidan, o'z oilasiga vafodor, ota-onasiga muruvvatli, farzandiga mehribon bizning ayollarimiz singari ayollarni men boshqa yurtda ko'rmadim".

Biror narsaning afzalligi boshqasiga qiyoslanganda namoyon bo'ladi degan gap bor. Yurtimiz fazilatlarini ham o'zga mamlakatlar bilan solishtirilganda yaqqolroq ko'rinadi. Shunday ekan, O'zbekistonning barcha sohalaridagi olamshumul muvaffaqiyatlarini dunyoga tanitish, nainki siyosatchilar yoki iqtisodchilar, balki, ijod ahlining ham mas'uliyatli vazifalaridan biri bo'lmog'i lozim.

Guliston Matyoqubovning xorijiy mavzudagi adabiy-badiiy publitsistikasi, boshqa xalqaro chiqishlari, har tomonlama ahamiyatli. Bu xildagi asarlar adabiyotimizda juda kam. Vatanimizni dunyoga tanitishning bu usulidan boshqa ijodkorlar ham ko'proq foydalansa nur ustiga a'lo nur bo'lar edi.

Guliston Matyoqubova ham 1995-yilning avgust va sentabr oralig'ida Pekinda bo'lib o'tgan xalqaro xotin-qizlar anjumanida, O'zbekiston Delegatsiyasi tarkibida qatnashib keldi. Safar taassurotlari, anjumanda ko'rilgan muhim masalalarni yoritish maqsadida u o'zining "Yurt baxtini aytishga bordim" adabiy -badiiy publitsistikasini yaratdi. Bu publitsistika tiliga nazar solsak, uning ravonligi va xalqchilligiga, voqealar izma-izligi va badiiy vositalarni o'z o'rnida to'la qo'llanila olganligining guvohi bo'lamiz. Asar Pekinda bo'lib o'tadigan xalqaro xotin-qizlar anjumaniga tayyorgarlik qay darajada o'tganligi haqidagi fikrlar bilan boshlanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashabbusi bilan tayyorlangan maxsus poyezd butun Yevropa va

Rossiya yerlarini bosib o'tib, o'z manziliga borib yetishi lozim edi. Bu yo'lda Yevroosiyo materigining juda ko'plab davlatlaridan ayollar bir-biriga yo'ldosh sifatida borar ekanlar, ularning maqsadi bitta ayollar baxti-saodatini yanada yuksaltirishdir. Guliston Matyoqubovanning ijtimoiy-siyosiy salohiyatini, keng doirada fikrlash qobiliyatini anglatga, ikkinchidan, publitsist- yozuvchi pozitsiyasi naqadar mustahkamligini ko'rsatadi. Safar taassurotlarining mana bunday yakunlanganida muhim asos bor: "Bu anjumanda Respublika nomidan, ishtirok etganim, Xitoy eliga O'zbekiston baxtini aytgani borganim, shuncha mamlakatlar vakillariga yurtimni tanita olganim, men oldimga qo'ygan maqsadga erishganim".

"Jayhun yoqasida o'sgan boyterek" turkum publitsistik asarining xuddi shu bobida bulardan tashqari madhiyamiz va gerbimizga ham xalq nazari bilan alohida nazar tashlanib o'tiladi. Masalan, quyidagi badiiy mahorat bilan yozilgan jummalarga e'tibor bering. "Yurtimizda tong otib kelmoqda! Quyoshning kumush va pokiza, oydin va oltin nurlari bu qadimiy Turon zaminning, o'lkasining tuprog'ini yana ham shuurga to'ldirmoqchiday! Yonboshqal'a birinchi bo'lib nurlarga cho'miladi. Bo'zatovning yam-yashil to'qaylari yosh kelinchakday suluvlashadi, qadimgi Dersanning Kerdar qal'asi atroflariga kumush nurlar to'kiladi. Ellikqal'aga qaytadan bo'y tikmoqchiday bo'lib, quyosh nurlariga osilib, orol tarafga ko'z tashlayotgandek ... Tong otib kelmoqda. Ovul va shaharlarimiz bo'ylab O'zbekistonimiz va Qoraqalpog'istonimizning davlat madhiyalari baralla yangraydi. Dillar mirab ketadi ..."

Guliston Matyoqubovanning "Xalqim, boshing osmon bugun" badiiy publitsistikasi boshqa asarlaridan keskin farq qiladi. Bu asarlarda ham adiba, avvalo, konstitutsiyamizga murojaat qiladi. Konstitutsiyamizning 2-bob 8-moddasidagi "Qoraqalpog'iston Respublikasining xalqi millatiga qaramasdan, Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarolari bo'lib bayon qiladi. Respublikamizdagi ko'p ming sonli millat vakillari tinch-totuv, ahil yashab,

mehnat qilmoqdalar. Ular konstitutsiyamizda belgilab qo'yilgan huquqlaridan to'la-to'kis foydalanib qolmoqdalar. Bu ham bizning demokratik jamiyat qurishdagi olg'a qo'yilgan ijobiy qadamlarimizdan biridir”.

Guliston Matyoqubova “Xalqim, boshing osmon bugun” badiiy-publitsistik asarida bu haqida batafsil to'xtalib o'tadi. O'tmishdan cheklovlar, bir qolipga solingan hayot bilan hozirgi milliy-madaniy uyg'onish davrini solishtiradi. Qoraqalpog'istondagi turli millat va elatlar dini e'tiqodidan qat'iy nazar ozod va teng huquqli jamligi to'g'risida yozadi. Har bir millat urf-odatleri saqlanibgina qolmasdan, jamiyat tashkilotleri tarafidan qo'llab-quvvatlaganligi to'g'risida dalillarni keltiradi. Qoraqalpog'istonda yashovchi ko'p ming sonli millatlar tilida nashr etilayotgan davriy va kundalik matbuot namunalari, o'quv qo'llanmalar va badiiy asarlarga bevosita murojaat qiladi. Bular demokratik jamiyatimizning oldiga qo'ygan maqsadlaridan biridir. Har bir demokratik jamiyatimizning oldiga qo'ygan maqsadlaridan biridir. Har bir demokratik jamiyatda har bir millatlar o'z ona tillarida bilim olishi, mustaqil o'qib o'rganishi uchun qulayliklar bo'lmog'i lozim bo'lib qolmasdan, shart hamdir! Yuqoridagi fikrlar ham G.Matyoqubova ijodidan olingan. “Jayhun yoqasida o'sgan boyterak” turkum publitsistik asarlarining eng keyingisi “Xalq nomi bilan” deb ataladi.

G.Matyoqubova “Buyuklik kelmoqda O'zbekistonga” adabiy-badiiy publitsistikasining boshlanish qismini o'zining bolalik yillari yodi bilan boshlaydi. O'sha paytlar kishilarning fikrlari-yu, vijdon amrlari ko'rsatgan ishni, gapirolmagan gaplarining mag'zini ochishga harakat qiladi. Bir qolipga solingan hayot tarzi bilan mustaqil kunlarimizni solishtiradi: “Ana shu kunlar to'g'risida o'ylasak, uning har bir daqiqasini, har bir o'tgan kuni, oyi va yillarining bugungi bebaho mustaqilligimizning inson ko'nglini imon-e'tiborlarga, qiyossiz toza va yorug' nurlarga to'ldiruvchi lahzalar bilan solishtirsak, biz kim edik, o'tmish yillar davomida bizlarni kimlarga

tengladilar va bugun biz kim ekanligimizni bilganimizdan boshlarimiz osmonga yetadi ”.

G.Matyoqubova “Buyuklik kelmoqda O‘zbekistonga ” adabiy-badiiy publitsistikasining “Eng aziz meros-ona vatan” bobida tadbirkor eli, vatani uchun xizmat qiladigan kishilar haqida hikoya qiladi. Mavzuning boshlanishida ona-vatan haqida o‘z tuyg‘u va kechinmalarini bayon qilar ekan, G.Matyoqubova beixtiyor Qoraqalpog‘istonimizning bepayon sahrosi, tog‘-udaryolari, adir va qirlariga nazar tashlaydi. O‘zi tug‘ilib o‘sgan yurt bilan faxrlanadi: “Biz tug‘ilib o‘sgan yurt O‘zbekistonimizning 37% ini o‘z ichiga oladi. Qoraqalpog‘istonda har bir fuqaro bu baxtdan faxrlanib yashaydi. Iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma’naviy islohatlarning barchasi bu o‘lkada ham o‘zining ilk natijalari bilan xalqimizni quvontirmoqda. Bu quvonchni yaratuvchilari ham shu xalqning o‘zi, shu xalqning fidokorligi va mehnatsevarligidir. “Guliston Matyoqubova o‘z fikrini bayon qilar ekan, beixtiyor bu fikrlar xalq dardi, quvonch-u tashvishi bilan uyg‘unlashib ketadi. U Qoraqalpog‘istonlik barcha mehnatsevar millat vakillarining ma’naviyatiga taalluqli tarixiy dalillarini keltirib, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov o‘rtaga tashlagan “Turkiston umumiy uyimiz” g‘oyasi naqadar ijtimoiy ma’no kasb etganligini uqtiradi.

Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimovning ma’naviyatimiz, madaniyatimiz va iqtisodiyotimizni o‘stirish uchun yosh kadrlarga keng yo‘l ochib berish kerakligi haqidagi fikrlaridan ilhomlanib, respublikamizda olib borilayotgan o‘zgarishlarga to‘xtalar ekan, Guliston Matyoqubova Beruniy tumanida “Qizil qal’a ” xo‘jalik, yosh mutaxassis Ollambergan Isaqov bilan qilgan suhbatini keltirib o‘tadi. Ollambergan , nafaqat tumanda, balki respublikamizda ham eng yosh kadr. U o‘z qaramog‘idagi davlat mulkini ko‘paytirishga, kelajagimizni nurafshon etishga belbog‘lagan shijoatli kishilardan. Bunday rahbarlar kelajagimiz tayanchi istiqbolimiz posboni. Ularning oldidagi rejalari ham yuksak. Guliston Matyoqubova o‘zining “Buyuklik kelmoqda O‘zbekistonga” adabiy-badiiy publitsistikasi ana shunday pok niyatli

kishilarga, O‘zbekiston xalqiga oq yo‘l tilab yakunlaydi. “Oq yo‘l senga ulug‘ niyatlar! Oq yo‘l senga yurtingga kelayotgan buyuklik! Birinchi Prezidentimiz aytgan muhabbat va e’tiqod, sadoqat va bunyodkorlik har biringizning qalbingizda yashasin!”. Bu Guliston Matyoqubova publitsistikasining bosh shioridir desak mubolag‘a emas.

1.2. Shoira publitsistikasida she’riy ohanglar.

Guliston Matyoqubova she’riyatda mohirona qalam tebratgan iste’dodli shoira, nasrda ajoyib hikoyalar, publitsistik maqolalar bitgan haqiqiy yozuvchi.

Shoiraning “Muhabbat yurti” kitobida “Vatan mehri ona yurt kabi aziz”, “Ozod yurt , go‘zal hayot”, “Oq fотиha kuchi” singari publitsistik maqolalari ijtimoiy-siyosiy hayotimizning muhim masalalariga bag‘ishlangan. Mustaqillikdan keyingi erishilgan muvaffaqiyatlar, xalqimiz ongidagi o‘zgarishlar, yangilanishlar muallifning kuzatishlari, shaxsiy hayot tajribasi, mehnat faoliyati misolida yoritiladi.

Kitobidagi ikkinchi guruh publitsistik maqolalar - “Jayhun yoqasida o‘sgan boyterak” haqidadir. Turkumga to‘rt maqola kirgan. Har biri alohida sarlavhalangan. Mustaqil mavzusi va g‘oyasiga ega. Biroq ular bir nuqtada birlashadi. Bu – Qoraqalpog‘istonning ijtimoiy- siyosiy, iqtisodiy hayoti bilan bog‘liq jarayonlar, muammolarni yoritishdagi mushtaraklik. Boshqacha aytganda, turkum Qoraqalpog‘istonning ijtimoiy- siyosiy hayotining o‘ziga xos badiiy ko‘zgusi hisoblanadi.

“Xalqim ulug‘ yo‘lga chiqdi”, “Xalq idorasini ifoda etib” maqolalarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi jarayonlari qalamga olinadi. Bu tadbirga muallif faqat kuzatuvchi emas, faol a‘zo sifatida qatnashadi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, maqolalarda e’tirof etilgan fikrlar, muallif konsepsiyalari negizida real voqealikka asoslanganlik tendensiyasi

yaqqol ko‘zga tashlanib turadi. Bu tarixiy voqeadan olgan ilhomini ko‘proq nasrda yoritgan bo‘lsa-da, ba’zida yurak jo‘shqinligini she’r bilan beradi.

Sen umid bo‘l, yuraklarimga,

Sochlarimga qo‘shib o‘rayin.

Mening mehrim kerakmi senga,

Quyosh qadar qilib berayin...

Men ozodman, bir shoir qizing,

Sen quyoshsan ,tunni yengan mard,

Endi jafolarga qasdma-qasd,

Qizilgulday yashnaydi yuzim...

“Muhabbat yurti” kitobidagi “Erkinlik ramzlari”, “Xalq nomi bilan” maqolalarida Guliston Matyoqubova faol, davlat ahamiyatli masalalarda qat’iy fikrga ega mohir publitsist qiyofasida ko‘rinadi. Tilga olingan bu ikki maqolaning yana bir afzalligi bor. Muallif Qoraqalpog‘istonda xalqlar do‘stligi, millatlararo totuvlik va bag‘rikenglikning abadiy barqarorligi, kelajakda ham bu an’anani rivojlantirish, mustahkamlash haqidagi g‘oyaning Konstitutsiyada qonunlashtirilganini, ijtimoiy- siyosiy ahamiyatini alohida ta’kidlaydi. Bunday ibratli g‘oyalar muallifning deyarli hamma adabiy- badiiy publitsistik asarlari ruhiga singdirilgan.

Guliston Matyoqubova “Muhabbat yurti” kitobidagi ikki turkum publitsistik maqolalariga to‘xtaldik. Muallifning shunday kitoblari ham borki, yarmini publitsistikasi tashkil etadi. Masalan, “Vatan ruhi”(2011) kitobidan o‘ttizga yaqin katta-kichik maqolalar joy olgan.

“Xalqim menga jondan yaxshiroq”, “Er ham el bilandir, el ham er bilan”, “Bu dunyoning ko‘rki odam bolasi”, “Ko‘ngil obod san’at siridan” maqolalarida qoraqalpoq xalqi, madaniyati va san’ati rivojiga xissa qo‘shgan, dunyoga tanitishda o‘rni bor insonlarning mehnati haqida mehr bilan yozadi.

Shoiraning publitsist-yozuvchi sifatida hayotning ko‘p muammolari qiziqtiradi. Bu imkon qadar ularni ijodiga kiritib badiiy talqin qilishga oshiqadi. “Vatan ruhi” to‘plamidagi “Insoniyatni ogohlikka chorlaydi” (Orol dengizi halokati), “Daxldorlik tuyg‘usi” (Teleko‘rsatuvlarga munosabat), “Ma’naviyat va fuqarolik ma’suliyati” (Ma’naviy qadriyatlar) “Daryolarimiz- muqaddas qadriyatlarimizdir” (Ekologik muammolar, suv masalalari), “Ayol mavqeyi” (Ayollar siyosati) kabi maqolalar dolzarbligi, jamoatchilikni amaliy ishlarga ruhlantirishda, muammolar yechimiga javob izlashda ham ahamiyatlidir.

Guliston Matyoqubova adabiy-badiiy publitsistik chiqishlari muayyan sohaga xos ijtimoiy fikrlarning shakllanishida ham roli bor. Har bir ijodkor, ayniqsa, publitsist-yozuvchi real voqelik bilan mustahkam aloqada bo‘lmog‘i, hayotning “Tomir urishini” qalbdan his qilishi zarur.

Guliston Matyoqubovani boshqa publitsist yozuvchilarga ibrat qilib ko‘rsatsa arziydi. Sababi, bu sohadau juda faol. O‘zbekiston yoki Qoraqalpog‘istondagi har bir yangilikni, albatta, she‘r yoki publitsistik maqola bilan qo‘llab- quvvatlaydi. Ustyurt kengliklaridagi buyuk qurilishlar, Qo‘ng‘irot soda zavodi erishayotgan muvaffaqiyatlar muallif publitsistikasining asosiy mavzularidan biriga aylangan. Muallif faqat faktlarni qayd etmaydi. Bunyodkorlik ishlarining xalqimiz farovonligini oshirishdagi ahamiyatini raqamlar, iqtisodga tegishli ma’lumotlar bilan ham izohlab boradi. Ustyurt hayotini har tomonlama o‘rgangani, mehnat jarayonlari, odamlar psixologiyasiga kirib borgani va bu manzarani juda tabiiy tasvirlagani publitsistik mahorat belgisidir. Guliston Matyoqubova publitsistikaning qaysi shakliga murojaat

etmasin his qilib yozadi. Aniq dalil va raqamlarga tayanib ish ko'radi. Muallif Ustyurtda bir necha marta bo'lib, bunyodkorlik ishlari bilan tanishganiga shubha yo'q. Quruvchilar, mutaxassislar, rahbarlar bilan suhbatlari hudud borasida haqqoniy so'z aytilish, xulosa chiqarish imkonini bergan. Shu boisdan ham maqolalarda keltirilgan har bir fakt, suhbat-muloqot muallif mushohadalarining real badiiy yakunidek taassurot qoldiradi.

Muallif sahroda yangi hayot barpo etayotgan mo'jizalar yaratayotgan xalqning buyuk qudratiga ishonganki, qat'iyat bilan shu xulosaga keladi. Tilga olingan tadbirlarning amalga oshishi real haqiqat. Chunki, xalqimizning bunyodkorlik salohiyati bundan-da ulug' ishlarga qodir. Mo'jizaviy shaharlar barpo etish qo'lidan keladi. Bu fikrni o'tmish va bugungi hayotimizdagi olamshumul ishlar to'la tasdiqlaydi. Hayot va mehnat go'zalligini ta'riflayotganda ilhomi va quvonchini she'riy satrlarda berish an'anasini muallif Ustyurt turkumida ham davom ettiradi.

Salom, Ustyurt, yo'llaringda,

Cho'llaringda hayot qaynar.

Yangi kunga qanot berar

Yurtdoshlarim kuch g'ayrati.

Endi sening har qarishing,

Dengiz kabi toshib turar.

Bu shiddatli, yangi hayot

Mustaqillik sharofati.

Maqolalarning yana bir fazilati shundaki, o'qisangiz Ustyurt kengliklarida yurgandek, odamlari bilan suhbatlashayotgandek sezasiz o'zingizni. Muallif bilan tengday fikrlaysiz.

G.Matyoqubova xoh she'riyatida bo'lsin, xoh nasriy asarlari yoki publitsistik maqolalari yoxud ocherklari bo'ladimi, har birida Qoraqalpog'iston haqida ilhom bilan yozadi. "Qoraqalpog'istonim" turkumi, garchi nazmda bitilgan bo'lsa-da, zamonga hamohangligi, hayotning dolzarb masalalariga jo'rovozlilik bilan shoiraning publitsistik chiqishlarini eslatadi. Turkumdagi "Mustaqillik madhi", "Ozod, obod vatan", "Istiqlolning bog'larida", "Shunday erkin zamonlar", "Tuprog'ingda oltin sandiqlar" she'rlari muallifning publitsistik maqolalariga sig'magan qalb mavjlari, ilhomning nazmiy talqinlaridir. "Ustyurtim" she'ridagi ushbu satrlarda xalq qudrati kuylanadi. She'rning har bandi, har misrasi Ustyurtdagi bunyodkorlikdan qoniqish faxr hissi bilan yo'g'rilgan. Bularning barchasi istiqlol bergan ulug' ne'matning samarasi ekani ta'kidlanadi. She'r ijtimoiy-siyosiy ruhda, bugungi hayotga hamohang Qoraqalpog'istonning buyuk kelajagini yaratayotgan xalq mehnatini ulug'laydi. Shu xususiyati bilan she'r muallifning publitsistik maqolalariga juda yaqin.

Guliston Matyoqubovaning "Osoyishta yurtning ko'rkam manzaralari" ("Qoraqalpoq adabiyoti", 2012., 9-son), "Biz bugun kechagi odamlar emas" (Qoraqalpoq adabiyoti", 2014., 8-son), "Vatanga muhabbat-sadoqat va fidoiylik ramzi" ("Qoraqalpog'iston tongi", 2015., 29- avgust) maqolalarida Qoraqalpog'istonning mustaqillik yillarida erishgan yutuqlari, qurilgan imoratlar, madaniyat va san'at saroylari, o'quv muassasalaridagi islohotlar, umuman yurt farovonligi yo'lidagi mehnat haqida hikoya qilinadi. Muallifning nasrga xos oddiy so'zlarida shoirona qalb urayotgani seziladi. Har bir jumla, har bir so'z ohangida she'riyatni eslatadigan romantik kenglik, jo'shqinlik, hayajon jilolanib turadi. Faqat chinakam shoir –publitsist yoki publitsist-shoiringina shunday ilhom bilan yoza oladi. "Quvonmay bo'ladimi axir,-deb yozadi shoira maqolalarining birida. – Keng va ravon ko'chalarni to'ldirib o'zimizning O'zbekistonimizda ishlab chiqarilgan o'z avtomabillarimiz g'izillab yuribdi. Dehqon mehnati bilan dalalardan o'rib-yig'ib olingan g'alladan tandir

to‘lib nonlar yopilayapti. Meva sabzovatlardan dasturxonlar to‘kin bo‘lsa ipakimizdan atlaslar, paxtamizdan sof matolar yarashib insonni bezayapti. To‘yxonalarda esa kunda, kunora baxt iqbol sadolari yangrab yurtimizdagi tinchlik osoyishtalikni tarannum qiladi...”

Tasvir, har bir jumla Qoraqalpog‘istonning yutuqlarini ko‘z-ko‘z qilish bilan birga, buyuk kelajakka umidni ham mustahkamlaydi. Bu muvaffaqiyatlarni boyitib borish, vatanni gullab-yashnatish uchun faol mehnat qilishga da‘vatdek yangraydi. Muallifning qaysi publitsistik asarini o‘qisak ham mazmunida Qoraqalpog‘istonning “ertasi zo‘r, kelajagi buyuk ekanligi” haqidagi fikrlar bosh g‘oya ekanini anglaymiz.

“Publitsistikada milliy koloritni yaratish tajribasidan” nomli bitiruv malakaviy ishimizning birinchi bobining har ikki faslida ko‘rib o‘tdikki, publitsistika ham adabiyotning boshqa janrlari qatorida ijodkordan katta hayotiy tajriba, yozuvchilik mahorati talab qilinadi. Ayniqsa, muallif qaysi xalq hayoti, qanday mavzuda, qaysi davr haqida qalam tebratmasin, birinchi navbatda o‘sha yerning ruhini, boshqacha aytganda koloritini berishi zarur. G. Matyoqubovanning bu masaladagi talantiga biror e‘tiroz bildirish qiyin. U xorijiy mavzuda maqola yozadimi yoki o‘zbek hayoti, yoxud Qoraqalpog‘iston mavzusiga murojaat etadimi, eng avvalo, shu zaminning ruhini butun milliy-mahalliy ranglari bilan bera oladi. Bunda muallifning ikki turkum publitsistik maqolalarini tilga olishni istardik. Biri “Buyuklik kelmoqda O‘zbekistonga” deb nomlansa, ikkinchisi, “Jayhun yoqasida o‘sgan boyterak” turkum maqolalari shunday chinakam milliy ruhdagi maqolalar sanaladi.

Guliston Matyoqubova publitsistikasi haqida gapirganda, uning bu yo‘nalishdagi maqolalarida poeziyaga xos xususiyatlar sezilib turadi. Bu jarayonni shoiraning she‘riyati bilan bog‘lagan bo‘lardik. Muallif qalbidagi hayajonli to‘lqinlarni ifodalashga nasriy qalami ojizlik qilganda she‘riyatiga murojaat etadi va vaziyatiga doir fikrlarini she‘r tili bilan izohlaydi. She‘rlar maqolaning ruhiga shunday singdirib yuboriladiki, ularni maqolaning

mazmunidan mutlaqo ajratib qarab bo'lmaydi. Shu boisdan ham bir uning publitsistikasini she'riyatga yo'g'rilgan publitsistika deb ataymiz. Shoiraning xalqaro mavzularga bag'ishlangan (Xitoyga, Turkiyaga safari asosida yozilgan publitsistik chiqishlarini nazarda tutmoqdamiz) maqolalari xuddi mana shu ruhda yozilgan, nasr bilan nazm birlashib ketgan. Boshqa biror publitsistik yozuvchi ijodida bunday she'r bilan nasrning uyg'unligini ko'rmadik. Shu jihatdan G. Matyoqubovanning publitsistikasi boshqa yozuvchilarning publitsistik asarlaridan farq qiladi. Bitiruv malakaviy ishimizning umumiy xulosasi shundan iboratki, G. Matyoqubova qaysi mavzuda, xorijiy, mahalliy- milliy mavzumi ham nasrdagi qalamidan, ham she'riyatidagi talanti unsurlaridan foydalanadi. Fikrimizcha, shoira publitsistik maqolalarining qiziqarli va o'qimishli bo'lishining bir sababi shunda bo'lsa kerak.

II BOB. G.MATYOQUBOVA PUBLITSISTIKASIDA VATAN VA QORAQALPOQ QADRIYATI TALQINIDA.

2.1. Vatan va qoraqalpoq mavzusi publitsistik talqinida

Talantli o'zbek shoirasi Guliston Matyoqubovaning ijodidan, ayniqsa, uning lirikasidan o'rin olgan vatan, ya'ni kindik qonimiz to'kilgan ona-zamin serquyosh O'zbekistonimiz, qadimiy shahar To'rtko'l, har bir millatning qo'sh qanotidan biri bo'lmish ona tabiat, uning go'zalliklari haqidagi fikrlar zarrada quyosh aks etgani kabi uning she'riyatining har bir misrasida o'z in'kosini topgan. Ha, «Vatan» so'zi ulug' so'zdir. Vatan haqida har kim har xil fikrlasada, lekin barcha mulohazalar mohiyatida muhabbat yotadi. Haqiqiy iste'dodlar xech qachon biri boshqasini takrorlamaydi. Guliston Matyoqubova ham mavzu talqinida original yo'l tanlaydi, xech kimga o'xshamaydigan poetik usulda yozadi. Vatanga sadoqat, u bilan hamnafas yashash, taqdirini Vatan taqdirigabog'lash va shu orqali baxtga erishish g'oyalari she'rlarining yetakchi pafosi. Ona yurtimiz unda tug'ilganmiz. Yashayotganimiz, oppoq tongiga shukronalar aytayotganimiz xalqimiz baxtining cho'qqisi. "Har kimning o'z yurti kaba qal'asi", - deydi Guliston Matyoqubova. U o'z yurtini, vatanini buyuk shaharlar Parij, Londonday mashhur bo'lmasa ham, uning o'ziga xos o'rni bor, deydi. "Har bir kuni men uchun shondir" deb o'zgacha bir mehr-muhabbat bilan sevadi. She'rlarida yonib-yonib kuylaydi.

Zarpechkalar quchib yotgan baland tog'ing yo'q,

Qumlar bilan olishasan ming yildan buyon.

Salqinlarda rohat qilib yotgan chog'ing yo'q,

Daraxt ekib umring o'tar Qoraqalpog'iston.

Mayli mashhur bo'lmasang ham London, Parijday,

Ertalaring har bir kuni men uchun shondir.

O‘z o‘rning bor O‘zbekiston xaritasida,

O‘zbekiston esa menga butun jahondir.

Shoira qaysi usulda Vatanni ta’riflasi ham, muqaddasligini ta’kidlaydi. Ona-yurtga hiyonat kechirilmaydigan xato, gunoh ekanligidan ogohlantiradi. Vatanni sevis, faxrlanish, ardoqlash, Vatanga sodiq bo‘lib yashash va mehnat qilish shoiraning Vatan haqidagi she’rlarida tarannum etiladi. Tor va keng ma’nodagi Vatan tushunchalarini uyg‘unlashtirib, tutashtirib, shunday talqin etadiki, Vatan tushunchasining dunyodagi eng go‘zal, eng ardoqli va eng muqaddas tushuncha ekanligini his qilamiz.

Ozod yurtim, tonglaringda ochiq osmonim bor mening,

Ochiq osmonim ostida ozod davronim bor mening.

Ajdodlardan kuch oluvchi ruhi ravonim bor mening,

Dunyolar ichida dunyo jonu jahonim bor mening,

Istiqloli baxt-iqbolim, ota makonim bor mening.

Qalbida Vatan tushunchasi bor inson, she’rni o‘qib shoir bilan teng zavqlanishi tabiiy. Vatanning go‘zalliklaridan, har bir qarich yerini asrab-avaylash kerakligini shoira she’rlaridan bilib olamiz. G. Matyoqubova Vatanning ertangi kuni uchun yonib yashaydi. Uning ravnaqiga qo‘lidan kelgancha harakat qiladi. Yoshlarni ham bu yo‘lga chaqiradi. Ba’zi she’rlarida Vatanning ozod va obodligi haqida so‘z ochilsa, ayrim she’rlarida Vatan tarixida o‘chmas iz qoldirgan siymolar ulug‘lanadi, yana birlarida esa Vatanni yuksaltirayotgan mehnat kishilari vasf etiladi. Shu tahlilda Vatanning yaxlit obrazi ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi. Vatanning qanchalik muqaddasligini bilib, anglab yetamiz.

Yurtimiz qadim-qadimdan oq sharqning ma'naviyat beshigi bo'lganligini Jayhun va Sayhun oralig'idagi aqlni lol qoldiradigan obidalarimiz, davrlar to'foni sinovidan o'tgan qadriyatlarimiz, buyuk allomalarimiz yaratgan qomusiy kashfiyotlari to'liq isbotlaydi. Ming yillar davomida avlodlardan-avlodlarga singib kelayotgan bu botiniy ma'naviyatni hech bir mustabid elimiz qalbidan yulib ololmadi. Ziyoni dud to'sa olmaganidek, zulmatlarni parchalab, vatanimiz uzra istiqloq quyoshi balqidi.

G.Matyoqubova she'riyati hayot haqiqatiga asoslangan. Shoiraning vatan haqidagi she'rlarida sog'inch tuyg'ularini mahorat bilan ifodalagan. Shu sababli ham G.Matyoqubova ushbu she'rida quyidagicha xulosa qiladi:

Bugun gapu, so'zimizga chegara kerak,

Yaxshilikka bo'lsin yurtning bor umidlari,

Chegarasin yo'qotmasin odamgarchilik.

Guliston Matyoqubova publitsistikasiga nazar tashlar ekanmiz, avvalo, uning shoirona fikrlarining nasriy shaklda ifoda eta olish qobiliyatiga tan berasan kishi. Albatta, har bir yaxshi asarning mehriyosi boshqa yaxshi asarning mehriyosiga o'xshamasligi uchun yaxshi. Go'zal degan so'z bitta lekin uning ming bir ma'nosi bor.

Yaxshi asarlarning yaxshilik sirini qidirgan vaqtda hamma yaxshi asarlarga mushtarak bo'lgan bir narsa darrov ko'zgako'rinib turadi. Ehtimolki, san'at, shu jumladan, so'z san'ati- adabiyot ham kishilarning ongiga his orqali- yurak orqali ta'sir qiladi. Adabiyot biron ijtimoiy hodisaning yaxshi yoki yomon ekanligini faktlar, raqamlar bilan isbot qilib, xulosa chiqarmaydi, uning yaxshi yoki yomon ekanligini ko'rsatib kishilarda shu hodisaga nisbatan muhabbat yoki nafrat hissi tug'diradi. Bilgan kishi bilib berishi mumkin, lekin his qilgan kishi his qilib qo'yavermaydi. Adabiyotning zo'r tashviqiy kuchi ham ana shundan iborat. Kishi xech qachon dushmanining go'ri ustida

boshqalarning ko‘zidan yosh chiqaradigan ta’sirli nutq so‘zlolmaganidek, yozuvchi biron hodisaga o‘quvchida muhabbat yoki nafrat hissi qo‘zg‘atishi uchun avval o‘sha his o‘zida bo‘lishi kerak”.²

Guliston Matyoqubovada xalq quvonchini, tashvishini respublikamiz hayotidagi ijobiy o‘zgarishlarning hayotimizda tutgan o‘rnini yaqqol ko‘ra bilish, shoirona til bilan aytganda his qila olish qobiliyati yuksak darajadadir. Shoir Qoraqalpog‘istonda tug‘ilib o‘sdi, uning kindik qoni to‘kilgan zaminga muhabbati, shu zaminning mehribon kishilariga hurmatini o‘z asarlari orqali ifoda etgan.

Bitiruv malakaviy ishimizning asosiy qismi bo‘lishi ushbu bobda uning jamiyatimiz hayotida muhim o‘rin tutgan “Jayhun yoqasida o‘sgan boyterek” turkum adabiy-badiiy publitsistikasiga nazar tashlab o‘tishni maqsad qilib oldik. Avvalo, bu asarning dunyoga kelishi haqida to‘xtalib o‘tsak. Guliston Matyoqubovaning ijtimoiy hayotda tutgan mavqeyi, uning Qoraqalpog‘iston Respublikasining Konstitutsiyasini ishlab chiqishga bevosita va bilvosita ishtirokiga sabab bo‘ldi. Bu XX asrning 90-yillari boshlariga borib taqaladi. Shoir bu asarini yozish uchun ikki yildan ko‘proq tayyorgarlik ko‘rdi. Uning har bir bobini yurakdan his qilib yozishga kirishadi. Negaki, yozuvchi o‘zi his qilmagan narsa to‘g‘risida yozsa, buni o‘qigan o‘quvchi ham xech narsani his qilolmaydi. O‘quvchining qalbiga ta’sir qilmagan narsa adabiyotga xech tegishli emas.

His qilinmasdan yozilgan asar qog‘ozdan qilingan gulga o‘xshaydi.

His, ichki dard kishining qalbini toshirib yuboradi. Bunday vaqtda kishi o‘zini qayerga qo‘yishini bilmaydi. O‘zining dardiga boshqalarni sherik qilish, kishiga azob berish darajasiga yetadi. Shu vaqtda qo‘l qalamga boradi. Kishining ko‘ziga xech narsa ko‘rinmaydi. Yozish uchun xech narsa halal bermaydi. Fikr to‘kila boradi. Yozib ulgurib bo‘lmaydi.

²A. Qahhor. Haq so‘zning kuchi. Toshkent. 1989y.

“Bu qatorlarni men o‘tgan yili ko‘nglimga tugib olgan edim. Har safar Qoraqalpog‘istonimizning asosiy nizomi-Konstitutsiyamizni qo‘limga olganimda u har doim mening ish stolimda turadi. Xalqimning barcha tilaklari, armonlari, yaqin odob kunlariga bo‘lgan katta ishonch, ona-yurtimizning, sevikli O‘zbekistonimizning kelajagini yorqin ko‘z oldimizga keltiradigan, ko‘ngliga yuksak maqsadlar yuragimni cheksiz mehr-muhabbatga to‘lab-toshdiradi. Xalqimiz...Konstitutsiyamizning qabul etilishini sabrsizlik bilan kutdi. Negaki, bu asosiy hujjat ertangi kunimizga borar yo‘limizni yana ham charog‘on etmog‘i shubhasiz edi”- degan fikrlarni G. Matyoqubovanning “Xalqim bir yo‘lga chiqdi” deb boshlanuvchi birinchi bobidan bilib olishimiz mumkin. Asar boshlanishining o‘zidayoq ko‘rinadiki shoira ona –yurt, tug‘ilgan yeri Qoraqalpog‘istonning yangi Konstitutsiyasiga ega bo‘lishini faxr va iftixor bilan yozadi va yangi qurayotgan davlatimiz huquqiy –demokratik davlat nishonasi sifatida “Bu asosiy nizomimiz – o‘zimizning nizom. Uni xech kim bizga yuqoridan turib tuzib bergan emas” degan fakti o‘rtaga tashladi.

“Qoraqalpog‘iston Respublikasining xalqi inson huquqlari va davlat suvereniteti prinsiplari tan olishini, yoqlashini tantanali tarzda ifoda etib hozirgi va kelajak avlod oldidagi javobgarchilikning his qilib...”.

Ushbu so‘zlarni o‘qiganimizda uzoq tarix ko‘z oldimizda gavdalanadi. Bizning ota-bobolarimiz bir umr erkinlikka, mustaqillikka talpinib yashadilar, kurashadilar. Bu olis va mashaqqatli yo‘lda ko‘plab qurbonlar beriladi. Sotsializm g‘oyalari baxtli turmushga yetkazadi deb unga ishonadi. Kun-u tun tinim bilmasdan minnatsiz mehnat qilaveradi, xech bir tinim topmadi. Biroq ularning manglay terlari, halol mehnatlarining natijasi ma’naviyatidan din va millatidan ayirishga olib borishini kech juda, kech sezib qoldi”, -deb yozgan edi G. Matyoqubova.

Shoira publitsistikasini o‘rganishga chuqurroq kirib borar ekanmiz, uning asarlarini alohida bir o‘ziga xosligiga guvoh bo‘lamiz. Ona-yurt dardi, quvonchi

bilan bitilgan satrlar milliy qadriyatlarimiz ma'naviyatimiz bilan chambarchas bog'lanib ketganligining shohidi bo'lamiz.

“Xalqimizning butun bir tarixi ko'z oldimizga o'zining oltin sahifalarini ochib tashlagan edi. Bu sahifalarda qadim qipchoq dashtlari, Spitamenning so'g'dlar taqdiri uchun kurashlari, To'marisning qonli nidolari, Amir Temurning safarlari, qadim Xorazmning milliy gumbaz naqshinkor minoralari bobomizning Beruniyning oliy falsafasi hamma- hammasini eslash, ko'z oldimizda o'tkazishga esa fursat yetishmasdi”.

Yoki quyidagi satrlarga e'tibor beramiz. Ularda Guliston Matyoqubovaning buyuk kelajak sari inson intilishlarini naqadar yaqqol bayon qilganiga o'zingiz guvoh bo'lamiz:

“Qoraqalpog'iston O'zbekiston yer yuziga eshik ochgan nurli yo'llarda o'zining so'qmog'ini topib oldi. Bu so'qmoq mehnatkash xalqimizni oydin kelajakka boshladi. Bu so'qmoq Qoraqlpoq xalqining, shu yerda yashayotgan boshqa barcha xalqlarning kelajagini obod turmushini chorlab ko'rsatmoqda bu so'qmoq mustaqillik so'qmog'i buyuk O'zbekistonning mustaqillik yo'li. Komil – ishonch bilan ayta olaman, bu yo'llarning avval boshida yirik-yirik sanoat korxonalar, xalq iste'mol mollariniishlab chiqarish o'rinlari, paxta, sholi, bug'doy dalalari, bog'lari turibdi. Bu yo'llarda qadrli ota-bobolarimizning ruhi – poklari tirilib, Beruniy, Navoiy bobolarimizning Berdaq, Ajiniyoz shoirlarning o'chmas gazetalari tilga kirdi. Bu yo'lda farzandlarimizning baxtli bo'lib voyaga yetishishi, aql- bovar qilmas orzu-armonlari, kuch-quvvatiga to'lib-toshgan qaddi –qomati ko'zga tashlanadi”.

Guliston Matyoqubova ana shunday fikrlar bilan “Xalqim buyuk yo'lga chiqdi” publitsistik asariga nuqta qo'yadi.

Ko'pchilik insonlar bu asarning g'oyasi nimada ekan deb izlashga tushadilar. Mendan ham bitiruv malakaviy ishimni yaratayotganimda ko'pgina

do'stlarim Guliston Matyoqubovaning "Jayhun yoqasida o'sgan bayterak" publitsistikasining g'oyasini so'rashdi. Ba'zilar mening javobimdan qoniqish hissi hosil qilsalar ba'zilar buning aksi.

Shu yerda asar g'oyasiga oid o'zbek adibi Abdulla Qahhor fikrlarini ko'rib o'tsak, yuqoridagi savolga javob topgandek bo'lamiz: "Men ilgari vaqtlarda ko'p kishilardan asar yozishdan oldin uning g'oyasini belgilab olish kerak", -degan maslahatni eshitganman. O'sha vaqtlar shu maslahat asosida ish ko'rib, ko'p garang ham bo'lganman. Qo'limga qanday asar tushsa avval uning g'oyasini qidirar edim. Ko'pincha uning g'oyasini topa olmas edim. Endi o'ylab qarasam o'sha urinishlar mutlaqo samarasiz, maslahatlar noto'g'ri ekan. Haqiqatan shundaydir.

"Guliston Matyoqubovaning publitsistik asarlari g'oyasi ham har kimda har xil fikr tug'diradi. Lekin komil ishonch bilan aytish mumkinki, uning publitsistik asarlari, avvalo, vatanga sadoqat xalqqa xizmat etish va milliy mafkuramizga mos va xos ravishda yaratiladi. Milliy mafkuramizning endigina shakllanib kelayotganligini hisobga olsak, G. Matyoqubovaning she'rlaridagi kabi publitsistikasida ham yuksak milliy mafkura asoslarini mustahkamlashga bo'lgan intilish juda katta".³

"Davlatimiz xalq manfaatlarini konstitutsiyamiz orqali kafolatlab berayotgan ekan, unda bu haqqoniy erkinlik bo'lib hisoblanadi. Xalqimizning manfaatlarini, hammasidan oldin ijtimoiy- iqtisodiy tarafdin himoyalinishi bo'lsa, ikkinchi tarafdin o'z tarixi va madaniyatiga yon bosishi, yurt tinchligi va barqarorligi tinch mehnat etish baxtini, uning samaralarini, rohatini ta'tib ko'rish baxtini, kelajakni ozod va chin ma'nodagi erkin ko'rish baxtidan iborat"- deydi shoiramiz G. Matyoqubova. "Xalq inson – ehtiyorini bayonlab" deb nomlanuvchi publitsistikasida.

³A.Qahhor. Asarlari 5 jild 66- bet.

Mana shu asarni qunt bilan o'qib chiqqan kishi, uning oddiy xalq tilida, tushunarli qilib yozganligini guvohi bo'ladi. Xo'sh, qanaqasiga xalq tilida bunday asar yaratish mumkin? Deguvchilarga shunday javob berishimiz mumkin. Avvalo, xalqqa tushunarli asar yaratmoq uchun yozuvchida his qila olish qobiliyatini yuksak bilishi lozim. U hayotini kuzatishi, kuzatganda ham ich-ichiga kirib ketmog'i kerak. Guliston Matyoqubova ham xalq inson ixtiyorini bayonlab publitsistikasini shunday, hayotiy kuzatishlari orqali dunyoga keltirdi. Mana, masalan, quyidagi misralarga e'tibor bering: 1992-yil 8-dekabr Toshkentda "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinishi" ga bag'ishlangan majlisga qatnashish baxtiga muyassar bo'lgan edim. O'shanda Hurmatli Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov nutq so'zlab, mamlakatimizning jahonda tutgan o'rni, yurtimizning obodonchilikka yetishish yo'llari haqida gapirib, o'ziga xalqiga, fuqarolariga bo'lgan ihlosini, mehribonligi kuni ishlanayotgan har bir ish, belgilanayotgan har bir reja xuddi o'sha javobgarlikdan kelib chiqishi haqida to'lqinlanib gapirgan edi".

Adibaning "Xalqim, boshing omon bugun" publitsistikasi boshqa asarlaridan keskin farq qiladi. Bu asarda shoira, avvalo, Konstitutsiyamizga murojaat qiladi. Guliston Matyoqubova "Xalqim, boshing osmon bugun" badiiy publitsistik asarida bu haqida batafsil to'xtalib o'tadi. O'tmishdagi cheklashlar, bir qolipga solingan hayot bilan hozirgi milliy madaniy uyg'onish davrini solishtiradi. Qoraqalpog'istondagi turli millat va elatlar dini e'tiqodidan qat'iy nazar ozod va teng huquqli ekanligi to'g'risida yozadi. Qoraqalpog'istonda yashovchi ko'p ming sonli millatlar tilida nashr etilayotgan davriy va kundalik matbuot namunalari, o'quv qo'llanmalar va badiiy asarlarga bevosita murojaat qiladi. Bu demokratik jamiyatimizning oldiga qo'ygan maqsadlaridan biridir. Har bir demokratik jamiyatda har bir yirik sonli millatlar o'z ona tillarida bilim olishi, mustaqil o'qib-o'rganishi uchun qulayliklar bo'lmog'i lozim bo'libgina qolmasdan, shart hamdir! Yuqoridagi fikrlar ham Guliston Matyoqubova ijodidan olindi.

“Jayhun yoqasida o‘sgan boyterek” turkum publitsistik asarlarning eng oxirigisi “Xalq nomi bilan” deb ataladi.

Uning muxlislari tomonidan qizg‘in muhokama qilinayotgan “ Buyuklik kelmoqda O‘zbekistonga”⁴ publitsistik asari ham yuqoridagi publitsistikasining davomidir.

“Nima uchun ayrim bir odamlar bugungi kunning qiyinchiliklariga chiday olmay o‘sha sovet davrini qumsaydilar. Shu oddiy kampir onaxon aytib bergan voqea uning murg‘ak bolalik qalbida shakllanib, bugungi kungacha yetib kelib fig‘on qiladi. Hamon sovet hukumati ularning oilasi boshiga solgan kulfat-u yetim-yesirlik azoblarini unutmaydi. Axir, uning otasi xech kimning haqqiga hiyonat qilgani, o‘g‘rilik qilib mol-mulk to‘plagani yo‘q ediku. Uning tinch va baxtli hayoti o‘ziga to‘q turmushi halol mehnati evaziga qilingan edi. Shu mehnatini sen boyiding deb qo‘lidan ish kelmay o‘tirganlarga bular kambag‘allar deb olib bersalar, butun umr davomida qurgan uylari esa hukumatning qandaydir idoralariga aylantirilsa. Bu zo‘ravonlik va adolatsizlik emasmi? Mayli, shu bilan sovet hukumati kambag‘allarning boshlarini silagan ham deya qolaylik, lekin boyliklarga ega bo‘lgan kambag‘allardan kambag‘alchilik yo‘qolib ketmadi-ku! Aksincha oxir- oqibatda borini ham tutib bilmadilar va yana nochorlikda qoldilar.

Asarning davomini o‘qir ekanmiz ,hozirgi kunimizda kelajakka bo‘lgan yuksak ishonch ruhlarini sezamiz.Guliston Matyoqubova o‘zining bu asariga bosh qahramon qilib olgan Bibi onaxon fikrlari misolida bu tuyg‘uni naqadar ulug‘ligini isbotlamoqchi bo‘ladi.

Guliston Matyoqubova oddiygina onaxonning fahm etgan bozor iqtisodiyoti qonuniga kimlarningdir farosati yetmasligidan achinadi. Bu kunda shunday ahvolga tushib qolganlar taqdiriga kim sababchi ekanligini izlaydi. Sababi bitta. Yotib yeyishga o‘rgatgan eski davr! Bunday umumiy xulosa har bir

⁴“Amu tongi” gazetasi.23-may 1997-y. N 20-21-sonlar.

qadamda o'z aksini berib turibdi. Ehtimol, Bibi onaning bunday tadbirkorligi qonidagi ota-bobosi ishbilarmonligiga borib taqaladi. Bunday tadbirkor xalqi, vatani uchun xizmat qilayotganlar hozirgi kunimizda xalq olqishini olmoqdalar.

Guliston Matyoqubovanning “Non hidi” adabiy-badiiy publitsistikasiga nazar tashlasak, uning hayotga, yonimizdagi odamlarga bo'lgan sinchkovlikligiga yana bir bora ishonamiz. Asar sujeti kichik, shunday bo'lsa ham adibaning nima demoqchi ekanini to'la ochib berilgan. Asar qahramoni yozuvchining o'zidir.

2.2 Suhbat-maqola ilmiy- badiiy publitsistikasi namunasi sifatida

Guliston Matyoqubovanning nasriy ijodining yana bir yo'nalishi bor. Bu muallifning suhbat-maqolalari. Ular ham publitsistikaning bir sohasi. Bunday suhbat maqolalar, odatda matbuotda, gazeta-jurnallarda e'lon qilinadi. Keyinchalik ijodkorning muayyan kitobidan joy oladi. Guliston Matyoqubova ijodida bu adabiy shaklning yaxshi namunalari bor. Uning O'zbekiston va Qoraqalpog'istondagi shoir va yozuvchilar, jurnalistlar, siyosatchilar, gazeta, radio va televidiniya muhbirlari bilan suhbatlarining bir turkumi “Qaytmoq uchun ketmoqdaman”, “Ota uyim” kitoblarida nashr etildi. Har bir suhbat-maqolada, fikr teranligi, samimiylig, qalb jo'shqinligi, shoira tabiatiga xos hayajon, ehtirosli tuyg'ular o'zini sezdirib turadi. Mana, kichkina bir misol. O'zbekistondagi nufuzli gazetalardan birining muhbiri so'rayapti: “Baxt shoira nazarida, jurnalist nazarida, Guliston Matyoqubova nazarida, nima o'zi?

– Odamlar gazetaga meni izlab kelishadi. Xech kimga aytmagan gaplarini, do'stidan, onasidan, suddan yashirgan sirlarini menga aytadilar. Bu mening baxtim. Agar ularga yordam berolsam, yanada baxtiyor sezaman o'zimni. She'r yozayotgan lahzalarimda ham baxtni tuyaman. Menga o'sha lahzalarda xudoyim shunday katta baxtni ato etadiki, bunday holatni faqat

his qilishi kerak. Ko'ngil o'zi bilan yolg'iz qoladi. She'r tug'iladi. Bu tug'ilish-shoirning baxti''⁵.

G. Matyoqubovaning adabiy-badiiy publitsistik ba'zilariga kengroq, kasbiga bir nazar tashladik ixchamroq munosabat bildirishga urindik. Yana birfikrmuallif publitsistikasi haqida ,asosan, ijobiy fikrlar aytili. Har qanday asarda ozmi-ko'pmi kamchilik uchrashini xech kim inkor etolmasa kerak. Tahlilga tortilgan ishlarda publitsistika badiiyati talablariga javob bermaydiganlari ham borligidan ko'z yummoqchi emasmiz. Biroq bu nuqsonlar muallif publitsistikasining umumiy saviyasi va ahamiyatiga nisbatan oz ekanligini hisobga olib, ularga alohida urg'u berish o'rinsizdek tuyuldi. Maqsadimiz Guliston Matyoqubovaning nasriy ijodining bir qirrasi – publitsist- yozuvchi sifatidagi talantini yoritish edi.

Xalq baxtini o'z baxti deb tushungan, she'riyatni qismatiga aylantirgan shoirgina shu xilda fikrlashi mumkin. Guliston Matyoqubova fuqarolik pozitsiyasini, shoirlik e'tiqodini shunday idrok etadi, shunga amal qilib yashaydi, asar yozadi.

“Muhabbat yurtiga aylansin yurak” suhbat- maqolasida bundan-da ta'sirli, bundan-da hayajonli, hayot va adabiyot bilan bog'liq fikrlar, unutilmaydigan detallar bor. Suhbatdoshining : - She'r tug'ilayotgan onlar qanday holatda bo'lasiz? degan savoliga shunday javob beradi:

- Qoralamalarim, qog'ozlarim ko'z yoshdan jiqqa ho'l bo'ladi. Hamma yoqni bekitib olaman. Xech kimga ko'rinmayman va yoza boshlayman. Nazira degan bir shoira singlim bor. She'rim tayyor bo'lgach, unga o'qib beraman va yengil tortaman”.

She'r yozish jarayoni, ehtimol, boshqa shoirlarda ham shunday kechar. Lekin Guliston Matyoqubovadagi bu holatni beqiyos hayajon to'ldinida, kipriklari namlanib yozish tajribasi juda kam shoirda uchrasa

⁵G. Matyoqubova. Qaytmoq uchun ketmoqdaman.Nukus, 2007y., 285-bet.

kerak. Bu haqiqiy shoirga xos iste'dod belgisidir. Uning lirikasiga xos bu yetakchi xususiyat taniqli shoira Qutlibeka Rahimboyeva bilan bo'lgan suhbatida yanada oydinlashadi. Suhbat "O'zligini anglayotgan el" degan nomda Guliston Matyoqubovaning "Muhabbat yurti"(2002) kitobidan joy olgan. Suhbat, asosan, shoiraning "Yo'llaringga chiqdim" kitobi atrofida bo'lib o'tadi. Qutlibeka Rahimboyeva safdoshini yangi kitobi bilan tabriklash barobarida, bu ijodiy yutuqdan xursandligini ham izhor etadi. "Yaqinlaringiz, biz do'stlaringiz, muxlislaringiz ham shunday kitobingiz chiqqanidan suyunib yuribmiz. Axir ijodkor uchun bu kichkina quvonch emas –maqsad yo'lidagi bitta bekatga yetgani, orzu- armonlarining shaklini ko'rgani, ovozini eshitgani".

Bu, nainki kitob bahonasida shunchaki aytilgan yo'l- yo'lakay fikr, balki o'zbek she'riyati taniqli vakillaridan birining Guliston Matyoqubova lirikasiga bergan bahosi. Suhbatdoshlar she'riyatda o'z poetik ovozigaga ega, ko'p yillardan beri yelkadosh ijod qilib kelayotgan talantli va taniqli shoirlar. Shu boisdan ham ularning badiiy idroki, ilmiy- nazariy bilim darajasining yetukligi muloqotning serma'no va serqatlam chiqishida muhim ahamiyat kasb etgan. Hayot va adabiyot, shoir shaxsiyati va she'riyat, istiqlool va milliy ma'naviy qadriyatlar, badiiy ijod mas'uliyatiga boshqa masalalar suhbat mazmunini tashkil etadi. Savolga deyarli ikki tomon ham teng, lekin individual qarashlari bilan javob beradi. Masalan, Guliston Matyoqubovaning suhbatdoshining she'r san'ati to'g'risidagi savollariga bergan javobi mana bunday:

"Chinakam shoir xech qachon o'z o'tida kuymaydi. Uni el dardi, quvonchi shoir qilib, so'z aytiradi... Bugunning shoiriga ehtiros qanchalik ehtiyoj bo'lsa, aql ham shu qadar zarurdir... Inson boshqacha yashab, boshqacha yoza olmaydi. Xech bo'lmasa, o'sha yozayotgan lahzalarida she'ridagiday yashaydi... Men shoir shaxsini yozganlaridan bo'lak tasavvur qila olmayman...".

Fikrlar shoiraning o'z ijodiy tajribasidan kelib chiqib aytilgani shubhasiz. U shoir shaxsiyati bilan she'r aloqadorligi masalasini qo'zg'aydi va haqiqiy she'r uchun zarur talablarni eslatadi.

K. Rahimboyevaning she'r haqidagi qarashlari ham shunga yaqin, hamohangdir. She'riyatning ijtimoiy salmog'i, jamiyatdagi o'rni qanday bo'lishi kerak? Shoir mas'uliyati hamda vazifasi nimadan iborat bo'lmog'i lozim? Mana, endi K.Rahimboyevaning she'r to'g'risidagi nuqtayi nazarlari bilan tanishamiz:

“She'riyat bu bir qadar o'zanlarga sig'maydigan, qirg'oqlarni yoqtirmaydigan daryo...Xech qachon, xech qayerda ikkita shoir o'tirib, maslahatlashib she'r yozmaydi. Yozsa ham undan odamni hayratga soladigan bir narsa chiqishi qiyin...Shoir o'z ko'ngli bilan bu sershovqin dunyoda qanchalik yolg'iz bo'lsa ham, atrofida o'ziga fikrdosh kimsalar borligidan suyunadi, ularga suyanadi.Ulardan kuch oladi...Har kimning yozgani o'ziga o'xshaydi, ortiq ham, kam ham bo'lmaydi...”.

Guliston Matyoqubovaning har bir suhbat- maqolasi mohiyati, hissiy mushohadasi boyligi, zamon ruhiga mosligi, ijtimoiy- siyosiy hayot, adabiyot, san'atga doir qarashlarining salmog'i, ta'sir quvvati bilan ba'zan o'quvchini hayratga soladi. Tilga olingan sohalarning har biri xususida u chuqur ilm-bilim sohibi, badiiy fikrlash ufqi keng va serqirraligiga amin bo'lamiz. Bu fazilatlar qoraqalpoq adabiyotshunos olimlari, shoir va yozuvchilari bilan muloqotlarida yanada yaqqolroq ko'rinadi. Adabiyot va san'atga doir eng dolzarb masalalar ko'tariladi, yechimini kutayotgan muammolar yuzasidan original taklif va mulohazalar o'rta tashlanadi. Shu ma'noda, shoiraning adabiyotshunos olimlar Q.Jarimbetov va Q.O'razimbetovlar bilan bo'lgan adabiy suhbatlarida bugungi qoraqalpoq adabiyoti manzaralari, muammolar, yechimlar to'g'risida so'z yuritiladi. Masalan, uning Q.Jarimbetov bilan o'tkazgan “O'tli jurekten o'tli so'z”, (“Qoraqalpoq adabiyoti”,2011 y. dekabr)

savol-javobida bugungi adabiyot jarayonning dolzarb masalalari ko'tariladi.

Mulohaza va takliflar o'rtaga tashlanadi. Ayrim adabiy janrlar, adabiy tanqidagi sustkashlik badiiy asarlarni baholashdagi subektivizm, kitob chiqarish bilan bog'liq muammolar bo'yicha, holis fikrlar aytiladi. G.Matyobubovanning masalalarga yondashuvidan shu narsa anglashiladiki, u nafaqat badiiy ijod bobida tafakkur salohiyati, estetik mahorati yetuk, balki adabiy jarayonni ilmiy tahlil qila oladigan, adabiyotning o'ziga xosligini chuqur tushunadigan tadqiqotchi qiyofasida ham ko'rinadi. Uning adabiyotga doir olimona mushohadasi, Q. O'razimbetov bilan bo'lgan adabiy muloqotda yorqinroq namoyon bo'ldi. Adabiy suhbat dastlab "Adabiyot- haqiqatning badiiy aksi" ("Jahon adabiyoti", 2013., 8 son) jurnalida, so'ng "Amudaryo" jurnalining 2014 yil 1-2 sonlarida "Adabiyot- haqiqatliqtin ko'rkem seo'lesi" degan nomda qoraqalpoq tilida bosildi. Suhbat mazmuni, asosan, badiiy ijod qoraqalpoq adabiyoti haqidagi fikrlarga qurilgan. Adabiyotning o'tmishi, buguni va kelajagi borasidagi suhbatdoshlar fikr yuritishadi. Qoraqalpoq adabiyotining sho'rolar davridagi ahvoli, istiqbol yillaridagi o'ziga xosliklar, ikki davrda ijod qilgan shoir va yozuvchilar haqidagi qarashlar, adabiy tanqidchilikdagi oqsoqliklar nazardan o'tkaziladi.

Suhbatdoshlarning mavzuga yondashuvida qoraqalpoq adabiyotiga daxldorlik bosh tamoyil ekanini kuzatish mumkin. Suhbat bilan tanishib, G. Matyobubovanning qoraqalpoq adabiyotining tom ma'nodagi bilimdoni, muxlisi, fidoiysi, chin qalbdan sevishi, bu adabiyot haqida hamisha hayajon, mehr va ilhom bilan gapiradigan ijodkor ekaniga yana bir bor ishonch hosil qildim. Suhbatning "Jahon adabiyoti" jurnalida e'lon qilingani bejiz emas. Suhbatda ko'tarilgan mavzular, yoritilgan masalalar jahon adabiyotiga qiziquvchilar uchun ham ahamiyatlidir.

Guliston Matyobubovanning "Ko'ngil kengliklari"⁶ degan yana bir bor suhbat-maqolasi bor. Maqolaning hajmi ancha katta, ikki yuz sahifadan

⁶G.Matyobubova ota uyim. Toshkent. 2014y., 245-417-betlar

ortiq. U maqoladan ko'ra yaxlit kitobga o'xshaydi. Uni faqat shartli ravishda maqola deyish mumkin. Suhbat muallifning "Ota uyim" kitobida bosilgan. Suhbatdosh shoira Sharigul Fayzullayeva. Muloqotning oldingi suhbatlardan farqi shundaki, mualliflar faqat adabiyot haqida emas, Qoraqalpog'istonning ijtimoiy-siyosiy hayoti bilan bog'liq boshqa masalalar, yechimini kutayotgan muammolar to'g'risida ham fikrlashadi. San'at, madaniyat, milliy qadriyatlarga doir mulohazalari bilan o'rtoqlashadi. Ora-orada, o'rni bilan kechinmalar, taassurotlar she'rga solinadi. Ko'ngil dunyosidagi har xil tuyg'ulari, mustaqillik bergan imkoniyatlar xususidagi nuqtayi nazarlarini real hayotdan kelib chiqib bayon etishadi. Ikki suhbatdosh ham ijodkor- shoira. Bari bir adabiyot, san'atga doir fikrlar suhbatga "kirib keladi". " Ko'ngil kengliklari" oddiy suhbat emas. U hozirgi qoraqalpoq adabiyoti va san'ati to'g'risidagi ibratli fikrlarning jamlanmasi, badiiy-estetik qarashlarga qurilgan, adabiy jarayonda kam uchraydigan bir badiiy shakl. Bu an'ana kelajakda ham davom etishini xohlaymiz.

Guliston Matyoqubovanning hozirgi qoraqalpoq adabiyoti, ayniqsa, she'riyatga doir estetik qarashlari, safdoshlari- shoiralar lirikasi, ularning ham shaxs, ham shoiralik fazilatlarini misolida umumlashtiriladi. G. Shomuratova, M. Jumanazarova, F. Mirzaboyeva, G. Nurlepesova, G. Davletova, N. Matyoqubova kabi shoiralar to'g'risida aytilgan fikrlar, ularning ijodiy laboratoriyasi, she'r yozish jarayonlari, holatlari, ular bilan o'tkazilgan muloqotlar suhbatda aks etadi. Guliston Matyoqubova bu ijodkorlarni nainki qalbiga yaqin safdosh, balki talantli shoiraligi uchun ham hurmat qiladi, qadrlaydi. Agar u suhbat davomida G. Nurselepesova she'riyatiga to'xtab: "Gulnora she'riyatga samimiy bir soddalikni, yoshlarga xos jo'shqinlikni, qizlarga xos ibo va go'zallikni olib kirib, o'ziga xos she'riyat maktabini yaratmoqda", deb yozsa, boshqa bir o'rinda yana bir talantli shoira G. Davletova she'riyatini mana bunday ta'riflaydi: Guliston Davletova sirli ko'ngli sira to'lmas, tinib-tinchimas,

yaxshiliklar olamining farishtasiga o'xshab kimlarningdir og'irini yengil qilishga urinadigan bir ayol. Lekin uning she'rlarida boshqacha bir jonsaraklikni, o'zgacha bir ko'ngil daryosining oqimlarini ko'ramiz. Uning satrlaridagi to'qilishlar ,albatta,yolg'izlikning sirlaridan paydo bo'lgan. Kindik qoni tomgan qishloq tuprog'ini sog'inish, onajonining erkalashlari, bolalikdagi tengqurlari ichida qilgan sho'xliklari, yangalariga erkaliklari, qoraqalpoq dalalarining har bir giyohi... Axir, bu tuyg'ularning hammasi yolg'izlikning mahsuli...”.

Matbuotda e'lon qilingan suhbat-maqola yoki radio-televidiniya orqali efirga uzatilgan muloqotning o'ziga xosligi shundaki, muayyan mavzu bo'yicha suhbatdoshlarning ilmiy-badiiy tafakkur darajasi ham yuzaga chiqadi. Berilgan savollar, olingan javoblarning mazmun-mohiyatidan suhbat mualliflarining o'y-fikrlari, mushohada saviyasi ham bo'y ko'rsatadi.Guliston Matyoqubova professional adabiyotshunos yoki tanqidchi emas, shoiradir.Guliston Mtyoqubova badiiy ijod qonunlaridan tashqari, badiiy-estetik tafakkur nazariyasidan ham yaxshi xabardor. Shoira suhbatlarida adabiyot yoki she'riyat qonuniyatlari to'g'risidagi fikrlari bilan o'rtoqlashadi. Suhbat-maqolalari davomida qoraqalpoq adabiyotining jonkuyarlaridan biri, safdoshlari ijodiga befarq emasligini, adabiyot manfaati yo'lida yuksak marralarga intilayotganini namoyon eta olgan.

Guliston Matyoqubova kim bilan qanday mavzuda suhbat qurmasin, ijtimoiy-siyosiy ,falsafiy, ma'naviy-axloqiy masalalarga doir mulohazalari teran, qarashlari konkret misollarga asoslangani bilan ajralib turadi. U har bir savolga o'z hayot va ijod tajribasidan kelib chiqib javob qaytaradi. Shuning uchun ham suhbatlarida ko'tarilgan muammolar, ilgari surilgan taklif va istaklar hayotimizning turli qatlamlarida aks sado berayotgani, amaliy ahamiyat kasb etayotgani sir emas. Aslida, har qanday suhbatdan ko'zlangan bosh maqsad ham shu. Ijtimoiy-siyosiy va adabiy hayotimizning dolzarb masalalari, ustuvor tendensiyalari borasidafikr almashish, yechilgan yoki yechimini kutayotgan muammolar bilan jamoatchilikni tanishtirish, amaliy takliflar nazarda tutilmog'I

lozim. Guliston Matyoqubova bilan o'tkazilgan har bir suhbat zamirida shu g'oya turadi. Qolaversa, shoiraning ma'naviy-intelektual salohiyati, siyosiy yetukligi, ijoddagi talantiga xos badiiyat qirralari suhbatlari mazmun-mohiyatini tashkil etadi.

Shoiraning suhbatlari adabiyotdan uzoq mavzularda bo'lsa-da, baribir badiiy so'z san'ati, ijod, she'riyatga aloqador fikrlar suhbat maydonini "egallaydi", ba'zan suhbatning bosh mavzusiga aylanadi. Bu tasodifiy emas. Chunki, shoir shaxsini she'riyatsiz tasavvur qilish mushkul. Lirikaning boy va rang-barang poetik dunyosi, uning shaxsini bezaydigan go'zal sifatlardan biriga, allaqachon aylanib ulgurgan. G. Matyoqubovaning she'riyat haqida o'z tajribasi, umume'tirof etilgan she'r poetikasiga doir aytgan fikrlari uning individual ilmiy saviyasini ham belgilaydi. Shu ma'noda suhbatdagi nazariy fikrlar shoiraning so'z san'atiga tegishli estetik qarashlarini idrok etishga ham yordam beradi.

Ijodkorlar uchun badiiy so'z san'ati, umuman, hayot va adabiyot haqida ko'ngil kechinmalarini ifodalashning qulay vositasi. Guliston Matyoqubova ijodning bu shaklidan ham foydalanadi. Va turli mavzularda, ayniqsa, badiiy ijod sohasidagi suhbatlarida mustaqil fikriga ega, badiiy-estetik salohiyat masalasida shakllangan ijodkorligini ko'rsata oldi.

Fikrlar shoiralar she'riyati misolida isbotlanadi ham. Bunday qanotli, ramziy so'zlar bilan she'riyatga baho berish, badiiy-estetik tajribasi shakllangan shoirnigina qo'lidan keladi. G. Matyoqubova bu masalada yaxshigina estetik did, mahorat, nazariy saviyaga ega ekanligi, boshqa bir shoir-N. Matyoqubova she'riyati haqidagi fikrlarida yana bir marotaba dalillanadi. Bunday shoirona uslub va ohangda, olimlarga xos ilmiy mushohada yuritib, xulosalar chiqarish kamdan kam ijodkorda uchraydi: "She'rlar qizlar tikkan palakday rang-barang, naqshlari, xilma-xil jilvalari ko'zni yashnatadigan, ko'ngilda bahor chechaklarini undirgan, yomg'ir nafasli misralar o'quvchini o'ziga maftun etadi... Naziraning she'riy satrlaridan

saksovullarning dag'al tanalari harorat sohib, afsona so'zlab yotganday. Naziraning barcha she'rlaridagi otalar yurtining qurigan dashtlari, ertak so'ylagan gujumlarning soyalari, otlarini dupurlatib, tarix saroylaridan chiqib kelayotgan bahodirlar shiddati, qaldirg'ochlarning muhabbat shevalari – buyuk vatan muhabbati, qadim tuproqning mislsiz go'zal suratlari bo'lib sizni sehrlaydi. Uning barcha she'rlarida nihoyatda ravonlik, tabiiylik ko'zga tashlanadi. Fikrlar, ohanglar, qofiyalar – barchasi bir – birini to'ldirib, bir – biriga ziynat bag'ishlar, buloq suvida jimirlab yotgan chashma toshiday yarqirab ko'zlarni oladi". Suhbatdan parcha keltirdik. Maqsad Guliston Matyoqubovaning adabiy-estetik qarashlarini kengroq sharhlash, badiiyatni nozik idrok etib, she'riyatni tahlil qilish mahoratini e'tirof etishdir.

Tadqiqotimizning ushbu bobidagi ikki fasllar tahlilidan shu narsa ma'lum bo'layaptiki, Guliston Matyoqubova lirikasida vatanni ulug'lash qanchalik muhim rol o'ynagan bo'lsa, uning publitsistik maqolalarida ham bu mavzu uning asarlarida yetakchi o'rinda turadi. Uning har bir publitsistik chiqishida O'zbekiston, qolaversa o'zi tug'ilib voyaga yetgan Qoraqalpog'istonni madh etishni ijodkorlik burchi deb biladi. Yuqorida tahlil qilganimiz ikki turkum publitsistik asarida – "Buyuklik kelmoqda O'zbekistonga" va "Jayhun yoqasida o'sgan boyterak" turkum maqolalarida O'zbekistonning barcha sohalaridagi buyuk qudratini, xalqimizning bunyodkorlik ishlarini faxr tuyg'ulari bilan tasvirlashi, "Jayhun yoqasida o'sgan boyterak" turkumida Qoraqalpog'istonning betakror qiyofasini, jumladan, Qoraqalpog'iston Konstitutsiyasining qabul qilinishi bilan bog'liq jarayonlari goh she'riy satrlarda, ba'zan nasr yo'li bilan bayon etadi. Bu siyosiy jarayonga o'z munosabatini shu tarzda talqin etar ekan, bu voqea qoraqalpoq xalqi qalbida sevinch tuyg'ularini uyg'otishini mehr bilan tasvirlaydi, o'zi esa shu yurt farzandi ekanligidan faxrlanadi. Bu fikrlar shunchaki, quruq bayon qilinmaydi faktlar, misollar bilan dalillanadi. G. Matyoqubovaning publitsistik ishlari orasida bir turkum maqolalar borki, biz ularni ushbu janrga mansub deb hisobladik va ularni suhbat- maqola deb atadik. G. Matyoqubova faqat Qoraqalpog'istonda emas, O'zbekiston

doirasida ham tanilgan adiblardan biri. O'zbek kitobxonlari ham uni mohir publitsist sifatida taniydi. U bilan ko'p marotaba suhbatlar uyushtirgan. Muallifning K.Rahimboyeva, qoraqalpoq olimlar, jurnalistlar Q.O'razimbetov, Sh.Payzullayeva, Q. Jarimbetov, R. Jabborov, R.Siddiqovalar bilan suhbatlari, savol- javoblari har ikki adabiyot, har ikki qardosh xalqning ijtimoiy- siyosiy hayotidagi muhim o'zgarishlarga bag'ishlangan bo'lib, har birida davrimizning muhim masalalari ko'tariladi va muallif qalbida aylanib yurgan fikrlar bilan o'rtoqlashadi. Har bir suhbatning markazida qoraqalpoq va o'zbek hayotiga doir ko'pgina muammolar qalamga olinganini sezib turasiz va muallifning har ikki xalq hayotini, masalalarini naqadar chuqur bilishi va hal qilinishi yo'llarini ko'rsatganidan mamnun bo'lasiz. Bu publitsistik mahorat belgisidir, albatta.

III BOB. TA'LIM BOSQICHLARI DASTUR VA DARSLIKLARIDA MAVZUNING BERILISHI

3.1. Mavzuning ta'lim jarayonida amaliyotga tatbiq etish bo'yicha metodik tavsiyalar

O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq shoiri Ibrayim Yusupov hayoti va ijodini nafaqat Qoraqalpog'istonda balkim O'zbekistonning barcha maktablarida o'rganadilar. 6-sinf darsligida Ibroyim Yusupov hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot va she'ri keltirilgan. Shoirning hozirgi qoraqalpoq she'riyatida tutgan o'rni haqida ma'lumotlar berilgan. Uning "Qadrdon so'qmoqlar" she'ri darslikdan joy olgan bo'lib unda kindik qoni to'kilgan qishloqqa bo'lgan mehr-muhabbatining ifodalanishini yaqqol aks ettirgan. Darslikda adib uchun jami 3 soat ajratilgan. O'quvchilar yozuvchi haqida qisman ma'lumotga ega bo'ladilar.

Dars ishlanma



Sinf: 6

Vaqt: IV chorak

Darsning mavzusi: Ibroyim Yusupovning "Qadrdon so'qmoqlar" she'rini o'rganish.

Darsning maqsadi:

- 1. Ta'limiy maqsad:** O'quvchilarni Ibroyim Yusupovning "Qadrdon so'qmoqlar" asarida ifodalangan insoniy tuyg'ularni his etishga o'rgata olish;
- 2. Tarbiyaviy maqsad:** O'quvchilar qalbida mehr-oqibat, vatanga bo'lgan muhabbat tuyg'usini singdirish;
- 3. Rivojlantiruvchi maqsad:** O'quvchilarni mantiqiy fikrlashini, og'zaki nutqini o'stirish;

Darsning turi: Yangi bilim beruvchi.

Darsda foydalanilgan jihozlar: Shoir portreti, kompyuter, tarqatma materiallar, plakat, rag‘bat kartochkalari.

O‘quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiya:

Adabiy-nutqiy kompetensiyalar (tinglab tushunish, fikrni og‘zaki bayon qilish, o‘qish, fikrni yozma bayon qilish): nasriy va she‘riy asarni ifodali o‘qiy oladi; ularning mazmun-mohiyatini tushuna oladi; badiiy asar syujetini qayta hikoya qila oladi; turli janr va hajmdagi 4-5 ta she‘riy matn yoki uning parchasini yoddan ifodali ayta oladi;

Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi: musiqa yoki rangtasvir asari zamiridagi badiiy jozibani his qila oladi va so‘z bilan ifodalab bera oladi.

Darsda foydalaniladigan usullar:

Dars rejasi:

T/r	Dars rejasi	Vaqt
1.	Tashkiliy qism. Salomlashish. Davomatni aniqlash. Tozalikni tekshirish.	2 daqiqa
2.	Uyga vazifani so‘rash.	10 daqiqa
3.	Yangi mavzu bayoni.	20 daqiqa
4.	Yangi mavzuni mustahkamlash.	11 daqiqa
5.	Baholash.	1 daqiqa
6.	Uyga vazifa berish.	1 daqiqa

Darsning borishi:



Tashkiliy qism: a) salomlashish; b) davomatni aniqlash; d) tozalikni tekshirish;

Uyga vazifa berish: O‘quvchilarga oldingi darsda Ibroyim Yusupovning hayoti va ijodini o‘tishgan. O‘quvchilarning uyga vazifani so‘rashda ularni 2 guruhga bo‘lib ularga plakatda **“Yillar zinapoyasi”** taqdim qilinadi. Guruh a‘zolari navbatma-navbat yillarni ketma-ketligida topishlari kerak bo‘ladi. Topolmagan o‘quvchigan

sariq jeton berib o'tirishiga ruxsat etiladi. Qaysi guruh marrani birinchi egallasa o'sha jamoa g'olib bo'ladi. Jetonlar quyidagicha bo'lishi mumkin:



Doskaga ikkita plakat ildiriladi. Tekshirish uchun ma'lumot yonida berkitilib qo'yiladi.



O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq shoiri Ibroyim Yusupov qardosh Qoraqalpog'istonning Chimboy tumani hududidagi Azot ovulida 1929-yilning 5-may kuni tavallud topgan. O'rta maktabni tugallab, Qoraqalpog'iston pedagogika institutiga o'qishga kirgan va uni 1949-yilda muvaffaqiyatli bitirgan. Talabalik yillarida yaqqol namoyon bo'lgan uning izlanuvchanligi, ijodga moyilligidan xabardor institut rahbariyati Ibroyimni shu dargohda o'qituvchi sifatida ishga olib qoladi. I.Yusupov 1961 -yilgacha mazkur institutda talabalarga til va adabiyot ilmidan saboq beradi.

1961-1962-yillarda u Qoraqalpog'istonning markaziy adabiy nashri bo'lmish «Amudaryo» jurnalining bosh muharriri vazifasini bajaradi. 1962-1965-yillarda esa respublikaning tarix, til va adabiyot ilmiy-tekshirish institutida avval ilmiy xodim, keyin sektor mudiri bo'lib ishlaydi.

Ibroyim Yusupov respublika adabiy jamoatchiligi o'rtasida qozongan obro'-e'tibori tufayli uzoq yillar davomida (1965-1980) Qoraqalpog'iston Yozuvchilar uyushmasiga raislik qiladi. Ayni shu yillari qoraqalpoq milliy adabiyotining barcha yo'nalishlarida diqqatga loyiq asarlar yaratiladi, yozuvchilar safiga yosh, umidli ijodkorlar kelib qo'shiladi.

I. Yusupov 1980-1985-yillarda respublikaning markaziy gazetasida bosh muharrir vazifasini bajargan bo'lsa, mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan to 2000-yilgacha Qoraqalpog'iston Ma'naviyat va ma'rifat markazining raisi lavozimida fidokorona xizmat qildi.

Ibroyim Yusupovning dastlabki she'rlari o'tgan asrning 40-yillari o'rtalaridan - u institutda o'qib yurgan kezaridayoq e'lon qilina boshlagan. Shundan buyon ijodkorning 30 dan ortiq she'riy va nasriy kitoblari o'quvchilar qo'liga yetib bordi. Shoirning «Kun chiqish yo'lovchisiga», «Qoraqalpoqni ko'p maqtamang ko'zimcha», «Qora tol», «Turnalar». «Mening yigit vaqtim...» singari o'nlab she'rlari, «Akatsiya gullagan joyda», «Gilamchi xotin haqida haqiqat»,

«Dala armonlari», «Mangu buloq» kabi dostonlari zamonaviy qoraqalpoq adabiyotining salmoqli yutuqlari bo'lib qoldi.

Serqirra ijodkor Ibroyim Yusupov qoraqalpoq milliy dramaturgiya va sahna san'ati rivojiga ham sezilarli xissa qo'shgan. Uning «Qirq qiz» (1965), «Aktrisaning iqboli» (1967), «Umirbek laqqi» (1971) dramalari, «Ajinivoz» librettosi uzoq yillar davomida tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'lgan.

Ibroyim Yusupov jahon mumtoz she'riyati vakillarining eng sara asarlarini o'z ona tiliga mohirlik bilan o'giran tarjimon hisoblanadi. Uning tarjimalari 1986-yilda «Mangu buloqlar» nomi bilan chop etilgan.

Shoirning ko'plab asarlari ham, o'z navbatida, qator tillarga, jumladan, o'zbek tiliga o'girilgandir. Hozirga qadar shoirning «Buloqlar qaynaydi» (1960), «Oltin qirg'oq» (1962), «Dala armonlari» (1967), «Cho'l to'rg'ayi» (1972), «Qora tol» (1988) singari kitoblari o'zbek tilida nashr etilgan.

Ibroyim Yusupov 1974-yilda Berdaq nomidagi Qoraqalpog'iston Davlat mukofoti sohibi bo'lgan.

Ko'p yillik samarali ijodiy faoliyati, qoraqalpoq va o'zbek xalqlari o'rtasidagi do'stlik va qardoshlik munosabatlarining rivojlanishiga qo'shgan ulkan xissasi, davlat va jamoat ishlaridagi ibratli faoliyati uchun Ibroyim Yusupov 2004-yilda «O'zbekiston Qahramoni» degan yuksak unvonga sazovor bo'ldi.

Taniqli ijodkor, qoraqalpoq va o'zbek xalqining fidoyi farzandi Ibroyim Yusupov 2008-yilda. 79 yoshida olamdan o'tdi.

Yangi mavzu bayoni: Ekranda quyidagi ko'rinish paydo bo'ladi va ularga savol beriladi nima uchun aynan shoir Har kimning tug'ilgan yerini Misrga o'xshatmoqda mazmunida savol beriladi va izohlanadi.



Shundan so‘ng esa ularga adibning she‘rini ifodali o‘qib berilgandan so‘ng tahlil qilinadi. Va fikrlar umumlashtirilib yaxshi fikr bildirgan o‘quvchilarga jeton beriladi.

Bolalar, inson umrini oqar daryoga o‘xshatishlarini ko‘p eshitgansiz. Nega umr aynan daryoga o‘xshatiladi? Chunki daryo suvi bir oqib o‘tgan joydan yana qayta oqmaydi. Odam ham o‘z umrining biror daqiqasini ortga qaytara olmaydi. Umr xuddi daryo singari oqib o‘tib ketadi. Yana bir gap borki, odam bir marta tushgan daryo suviga boshqa tusha olmaydi. Ya‘ni o‘sha daryoda boshqa safar ham cho‘milishi inumkin. biroq u tushgan daryoda bu safar boshqa

QADRDON SO‘QMOQLAR	
Har kimning tug‘ilgan yeri – Misr shahri. (Maqol)	
Qizil kendir bilan shivirlashar tol. Tuma uchib borar olis yoqlarga. Talay yo‘llar bosib misoli shamol Yana qaytib keldim bu so‘qmoqlarga.	Biroq u bunda yo‘q, u yiroqlarda... Bizning joylar o‘mi hozir paxtazor. NechogMik monandsiz bizning yoqlarda. Deb doim maqtayman, so‘rashsa agar.
Ushbu tor so‘qmoqqa qadam qo‘yganda Qaytadan men bola bo‘lib ketaman. Intiqqan yuragim kengayib shunda Chamamda qush bo‘lib parvoz etaman.	Gul terib, kapalak quvgan sho‘x vaqtim. Anov bedazorda yurgan toy dersan. Yo tavba, shu bitta qiyshiq so‘qmoqning Dilga yaqinligin qanday aytarsan!
Mosh paykalda gala chumchuq chug‘urlan She‘r o‘qishib turgan yosh shoirlarday. Buriilishda tanish qo‘shig‘in kuylab, Qo‘shni qiz oldimdan chiqib qolarday.	Cholga salom bersam o‘sha so‘qmoqda, «Kimsan?» deb tanimay menga qaradi. Bir bola uchrasa sal nariroqda: — Kimning o‘g‘lisan? — deb men ham so‘radim.

suvlar oqadi. Shunday ekan, insonning o'z o'tgan umrini, ayniqsa, bolaligi - bebobshligi kechgan davrlarni sog'inishi, qo'msashi tabiiy tuyg'u hisoblanadi.

Yana bir savol ustida o'ylanib ko'rish mumkin. Ya'ni nima uchun odam aynan bolaligini ko'proq qo'msaydi, uni tushlarida ko'radi, unga sari talpinaveradi? Gap shundaki, bolalik — umrning eng betashvish, eng beg'ubor, eng shavqli pallasi hisoblanadi. Bu paytda butun borliq bola ko'zi, bola tasavvuri bilan idrok etiladi. Atrofdagi barcha narsalar birinchi bor ko'rilayotgani, eshitilayotgani, his qilinayotgani tufayli ham nihoyatda qiziq, sirli va go'zal ko'rinadi. Aksariyat odamlar bolaga shafqat nazari bilan qaraydi, uni erkalaydi, suyadi. Bola kattalardan g'amxo'rlik, e'tibor ko'radi, atrof tabiatdagi har bir narsa unga qadrdon bo'lib qoladi. O'zi tug'ilib o'sayotgan hovli, ko'cha va mahallasi dunyodagi eng issiq go'sha, ota-onasi olamdagi eng mehribon insonlar bo'lib xotirasiga muhrlanadi...

Afsuski, umr yuqorida aytilganidek, bir joyda to'xtab turmaydi. Xuddi daryo suvi misol oldinga oqaveradi. Inson ulg'aya borgani sari uni turmush ehtiyojlari turli yo'llarga yetaklab olib ketadi. Endi bolaligidagi beg'ubor sho'xliklari, bir-biridan quvnoq o'yinlari, tashvishsiz kunlari ortda qoladi. U endi hamma joyda ham, hamma odamlardan ham faqat yaxshilik, ezgulik ko'ravermaydi. Turfa xil vaziyatlarda turli tabiatli kishilar bilan muomala-muloqotga kirishadi, bir kun xursand bo'lsa, boshqa kun dili og'rib uyga qaytadi...

Shunday odamlar borki, taqdir ularni tug'ilgan yerlaridan olislarga olib ketadi. Yaqinlari, qarindosh-urug'lari, do'st-u birodarlaridan ancha muddat uzoqda yashashga, turli davralarda bo'lishiga to'g'ri keladi. Ish, bola-chaqa tashvishi, tirikchilik sabab tug'ilgan joylarga tez-tez borib turishning imkoni bo'lmaydi. Oradan yillar o'tib, umr bir joyga borganda qadrdon go'shalarga yana qadam bosar ekan, insonni g'alati hislar chulg'ab oladi. Ibroyim Yusupovning «Qadrdon so'qmoqlar» she'ri aynan mana shu holatni boshdan kechirayotgan kishi tuyg'ularini badiiy aks ettirishi bilan o'quvchi ko'ngliga birdan ta'sir etadi.

She'rga epigraf qilib olingan maqolga e'tibor bering: «Har kimning tug'ilgan yeri — Misr shahri». Ma'lumki, Misr mamlakatida dunyoning eng qadimiy va go'zal shaharlari joylashgan. Odamlar bu shaharlarni bir bora ko'rish, ular bag'riga sayohatga borishni orzu qilishadi. Lekin shoir o'zining tug'ilgan ovulini Misrdagi muazzam shaharlardan kam ko'rmaydigan, she'rini ham xalqning shu ibratli maqoli bilan boshlaydi.

She'ring birinchi bandidagi «qizil kendir» Sizga notanish bo'lishi mumkin. Xalq tilida uni qizilquray deyishadi. U ko'p yillik tolali o'simlikdir. Ildizpoyasi ko'p yillik, yer usti poyalari bir yillik, silliq bo'ladi. Barglari nashtarsimon uchli, gullari mayda, pushti rangdadir. Poyasining po'stlog'idan olingan toladan arqon eshish mumkin.

Demak, shoirning ovulida hammamizga tanish tol bilan yonma-yon qizil kendir ham shivirlashib o'sib yotadi. Olis yoqlarga uchib ketayotgan turnalar lirik qahramon yodiga uzoqlashib ketgan bolaligini soladi. Tor, biroq qadrdon so'qmoqqa qadam bosar ekan, uning «intiqqan yuragi» birdan kengayadi. Shu o'rinda «intiqqan» so'ziga jamlangan bir necha ma'nolarga diqqat qarataylik. Albatta, yuqorida ta'kidlanganidek, uzoq yillar tug'ilgan makonidan olislarda yurgan lirik qahramonning bolalik sog'inchi bilan to'lgan yuragi bu kunlari nihoyatda intiqib kutgan. Biroq nihoyat bu yerlarga kelib maqsadga erishgan yurakka nisbatan nega «kengayib» degan so'z ishlatilyapti? Demak, bu yurakning intiqishi ichida «siqilish», «torayish», «diqqanafas bo'lish» ma'nolari ham bor ekan-da!

Demak, qadrdon so'qmoqlar ayriliq yillari siqilgan, diqqanafas bo'lgan bu yurakka kenglikni, erkinlikni, qushdek yengil parvoz etish baxtini hadya etarkanda! She'ring uchinchi bandi bu lirik qahramon aynan ijod kishisi ekaniga nozik ishora qiladi. Shoir o'smirlikdagi pokiza tuyg'ularini ilk bora she'rga solishdek baxt ato etgan kunlarni, birga mushoira qilgan do'stlarini xuddi kechagiday tiniq ko'radi, qalbiga birinchi muhabbat hissini hadya etgan qo'shni qiz qo'shig'i quloqlari ostida jaranglaydi:

Mosh paykalda gala chumchuq chug'urlar,

She'r o'qishib turgan yosh shoirlarday.

Burilishda tanish qo'shig'in kuylab,

Qo'shni qiz oldimdan chiqib qolarday.

Lekin yillar suroni juda ko'p narsani, juda ko'p hislami o'zi bilan birga olib ketgan. Uzoq yoz kechalari shoirga sho'xchan qo'shiq kuylab berib shodlantirgan qo'shni qiz ham «bunda yo'q, u yiroqlarda...» Qolaversa, «Bizning joylar o'rni hozir paxtazor...»

«Qadrdon so'qmoqlar» asari shoirning sobiq sho'ro davridagi ijod mahsuli hisoblanadi. Shunga ko'ra, mazkur she'rda lirik tuyg'ular bilan birga o'z davri bilan bog'liq ijtimoiy kayfiyat ham aks etgandir. Gap shundaki, sho'ro davrida yurtimizning, xususan, Qoraqalpog'iston hududining ham aksariyat sug'oriladigan yerlariga paxta ekish siyosati olib borilgan edi. Ko'plab mevazor bog'lar, poliz mahsulotlari, sholi va boshqa dehqonchilik ekinlari yetishtiriladigan yerlarni yoppasiga paxta bosib ketgandi. Xuddi shu siyosat natijasini aks ettirar ekan, shoir «Bizning joylar o'rni hozir paxtazor» deydi.

Ayni misradagi «bizning joylar» so'zlariga alohida diqqat qaratishimiz kerak. E'tibor bersak, bu misra «Biroq u bunda yo'q, u yiroqlarda» degan misradan keyin kelyapti. «Bizning joylar» bugungi kunda yiroqlarda bo'lgan «11» bilan chambarchas bog'liq. «U» esa «burilishda tanish qo'shig'in kuylab» chiqib keladigan qo'shni qizdir! Demak, shoir «bizning joylar» deganda, shu qo'shni qiz bilan sayr qilgan, u bilan baxtli damlami boshdan kechirgan dilga yaqin joylarni nazarda tutmoqda.

She'rga alohida ikkita to'rtlik ham ilova qilingan. Ularning maxsus ajratilishining sababi bor, albatta. Agar she'rning asosiy qismi bir-biriga bog'lanib ketadigan yaxlit lirik kechinmalarni o'zida mujassam etgan bo'lsa, bu to'rtliklarning har birida shoirning hayot tajribalari, kuzatishlaridan kelib chiqadigan falsafiy qarashlari ifodalangandir.

Hozirning o'zida Siz ham bir narsani kuzatishingiz mumkin. Ya'ni Siz o'zingizdan katta, ulug' yoshdagi odamlarni ko'proq bilasiz, ularga havas va hatto, taqlid ham qilasiz. Tanishlaringizning aksariyatini tengdoshlaringiz, yoshi katta aka-opalaringiz tashkil qiladi, to'grimi? Ko'chada uchrab qoladigan, Sizni yaxshi ko'rganidan xatto chuchuk tili bilan salom berib o'tadigan yoshi kichikroq bolajonlarning esa hammasini ham taniyvermaysiz, ismlarini-da aniq ayta olmaysiz. Nega? Chunki, odamning tabiati shunaqa. Odam doimo oldinga qarab oyoq bosadi, oldinda turgan narsalarni ko'proq ko'radi, oldindagilarga intilib yashaydi. Natijada

Cholga salom bersam o'sha so'qmoqda.

«Kimsan?» deb tanimay menga qaradi.

Bir bola uchrasa sal nariroqda:

— Kimning o'g'lisan? — deb men ham so'radim.

Mazkur to'rtlikda, biz yuqorida aytganimiz inson tabiatidagi qonuniyatdan tashqari, lirik qahramonning o'zi tug'ilib o'sgan joylardan ketganiga juda uzoq yillar bo'lgani, uni bilgan keksalar endi uni unutayozgani, u yo'q yillar tug'ilgan bolalarni esa o'zi tanimasligidek holat ham aks etgan, albatta.

Keyingi to'rtlikda hayotning bundan ham achchiqroq haqiqatlari ixcham badiiy shaklda ifoda etiladi. Uni ikkiga ajratib tahlil etgan ma'qul.

— Ota. narvon bo'пти anov qo'sh terak!

— Bolam. terak emas, bu umr-ku. bu!

Otaning ovuldan uzoq yil uzoqlashib ketgan o'g'lining sodda hayqirig'iga bildirgan javobida qancha haqiqat, qancha hikmat jamuljamdir. Avvalo, bir paytlar yashnab turgan terakning oxir-oqibat yog'ochga — narvonga aylanishi umrning o'tkinchiligidan, hech narsa boqiy yashamasligidan ogoh etadi. Undan keyin bu yerda yolg'iz terak emas, balki qo'sh terak haqida so'z bormoqda. Buni farzandlarini oq yuvib-oq tarab voyaga yetkazish uchun aziz umrini fido

aylaydigan ikki jafokash inson — ota va ona timsoli deb tushunsak. To‘g‘ri bo‘ladimi, bolalar?

Qolaversa, bu «qo‘sh terak» nega aynan «narvon bo‘pti»?

Narvon nima uchun xizmat qiladi? Insonni tepalikka, balandlikka, yuksaklikka olib chiqish uchun «Qo‘sh terak»ning — ota va onaning umri esa farzandlarini shu yuksakliklarga yo‘llash tashvishida kechadi. Ular o‘z yelkalarida kelajakni ko‘tarib turadilar!

Ajoyib shoir Ibroyim Yusupovning hayoti va ijodi, «Qadrdon so‘qmoqlar» she‘rining boshqa xususiyatlarini esa quyidagi savol va topshiriqlarga javob topish asnosida o‘zimiz uchun kashf qilamiz.

Yangi mavzuni mustahkamlash:

Savol va topshiriqlar

- O‘zbek va qoraqalpoq alqlarining qadimdan bir oila farzandlari kabi ahil va inoq yashab kelayotganiga hayotdan misollar keltiring.
- Ibroyim Yusupovning mehnat faoliyati uning hayoti davomida qaysi sohalar rivojiga ko‘proq xissa qo‘shganini anglatadi?
- «Qadrdon so‘qmoqlar» she‘rining yozilishiga nimalar sabab bo‘lgan deb o‘ylaysiz?
- She‘rning beshinchi bandini batafsil tahlil etishga harakat qiling.
- «E, anov chiriy deb qolgan olma-ku!» misralarida hayotning qanday haqiqati ifoda etilyapti? Buni o‘qituvchingiz va sinfdoshlaringiz bilan birgalikda muhokama qiling.
- «Qadrdon so‘qmoqlar» she‘ridan olgan taassurotlaringizni yozma bayon etishga harakat qiling.

O‘quvchilarning bilimini baholash.

O‘quvchilar olgan jetonlarini hisoblab baholar e‘lon qilinadi. Uyga vazifa beriladi.

Uyga vazifa: She‘rni yod olish

XULOSA

O'zbek publitsistikasi adabiyotimizdagi boshqa janrlar qatorida muvaffaqiyatli rivojlanib kelayotgan janrlardan biri. Bu janrning taraqqiyotida bir vaqtlar ko'tarilishlar ham kuzatildi. Mustaqillik yillariga kelib adabiyotning boshqa janrlari qatorida yuqori temp bilan rivojlana boshladi. Eng muhimi, publitsistika zamon ruhini teran ifoda etuvchi, istiqlol yillarida erishilgan muvaffaqiyatlarni ifodalashda ancha ilgarilab ketdi. Qoraqalpoq publitsistikasi ham o'zbek publitsistikasining bir yo'nalishi sifatida muvaffaqiyatli rivojlanayotgani ibratlidir.

Qoraqalpoq adabiyotida publitsistika janrida muvaffaqiyatli qalam tebratib kelayotgan bir guruh adiblar bor. Shular orasida Qoraqalpog'istonda yashab, o'zbek tilida asarlar yozib kelayotgan bir guruh ijod ahli bor. Bularning orasida faqat Qoraqalpog'istonda emas, balki O'zbekiston doirasida ham tanilib ulgurgan mualliflar bor. G.Matyoqubova, G.Rahimova, A.Oqnazarov, Y. Qo'chqorov, Q. Shoniyozov, Q. Yunusova va yana bir necha qalam ahlini sanash mumkin. Bularning orasida tadqiqotimiz mavzusiga ijodi tahlil obyekti bo'lgan Guliston Matyoqubova alohida o'rinni egallaydi. Publitsistika sohasida biz sanagan muallifning sardori desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Sababi, shoiraning juda ko'p asarlari, publitsistik maqolalari O'zbekistonda nashr qilingan. Agar shoira hozirga qadar o'ttizga yaqin kitob nashr qildirgan bo'lsa, shu kitoblarning aksariyat ko'pchiligida publitsistik maqolalar alohida turkumni tashkil etadi. Prozasining qariyb yarmidan ko'pini ocherklari va publitsistik maqolalari, tashkil etadi desak, bu ham haqiqat.

Publitsistika janri G.Matyoqubova ijodini xech qachon tark etgan emas, doimo u bilan hamroh, talantining noyob bir qirrasi sifatida hozirga qadar ham davom etayapti. Muallifning "Muhabbat yurti", "Qaytmoq uchun ketmoqdaman", "Vatan ruhi", "Uyg'onish nashidasi", "Ota uyim" va yana bir qator kitoblarida, muallifning rus va qoraqalpoq tilida chop etilgan to'plamlarida ham maqolalar, ocherklar, suhbat- maqolalar o'rin olgani fikrimiz tasdig'i uchun

keltirishimiz mumkin. Agar muallifning shu kunga qadar e'lon qilgan ocherklari, publitsistik maqolalari , suhbatlari bir joyga to'plansa, bir emas, bir necha kitob bo'lishiga ishonamiz. Bu faqat shuni ko'rsatadiki, G.Matyoqubova she'riyatda yoki nasrda qanchalik faol bo'lsa, publitsistik asarlar yozishda, suhbatlar tashkil etishda ham juda faol. Shu ma'noda G.Matyoqubova professional publitsistik yozuvchi.

Guliston Matyoqubovaning Qoraqalpog'iston va qoraqalpoq hayotiga bag'ishlangan publitsistik maqolalari alohida bir turkumni tashkil etadi. Qoraqalpog'iston hayotida biror ijtimoiy- siyosiy voqea yo'qki, G.Matyoqubova uni qalamga olmagan, maqolalari orqali qo'llab-quvvatlamagan bo'lsin. Muallifning shunday publitsistik maqolalari borki, qoraqalpoq hayotining rang-barang qirralari naqadar real tasvirlanganiga guvoh bo'lasiz. Uning "Biz bugun kechagi odamlar emas" , "Vatanga muhabbat- sadoqat va fidoiylilik ramzi" , "Ustyurt- kelajak yurti" , "Xalqimning mehr bulog'i" , "Yurtning asl o'g'loni" , "Navro'z ruhi yarashadi yurtimga" , "Xalqim menga jondin yaxshiroq" , "O'zimizda ishlab chiqarilgan" , "Ma'naviyat va fuqarolik mas'uliyati" va yana o'nlab publitsistik maqolalari qoraqalpoq zaminini, odamlarini madh etishga bag'ishlangan. Ularni o'qisangiz qoraqalpoq zaminini his qilasiz, odamlari bilan suhbatda bo'layotgandek sezasiz o'zingizni. Bu chinakam publitsistik mahorat belgisidir.

Guliston Matyoqubovaning suhbat- maqolalari ham qoraqalpoq va o'zbek adabiy muhiti uchun yangilik bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Shoiraning professor Q.O'razimbetov bilan "Adabiyot- haqiqatning badiiy aksi" degan mavzuda qilgan suhbatlari jamoatchilikda kata qiziqish uyg'otdi. Bu suhbat, avvalo, "Jahon adabiyoti" jurnalida bosildi. Keyinchalik qoraqalpoq tiliga o'girilib, "Amudaryo" jurnalida e'lon qilindi. G.Matyoqubovaning kitoblariga ham kiritib jamoatchilikka taqdim etildi. Suhbatda qoraqalpoq adabiyotining bir qator muammolari atrofida fikr yuritiladi va har ikki adabiyot uchun ahamiyatli masalalar o'rtaga tashlanadi. Muallifning professor K.Quramboyev bilan "Baxti va taxti- ijodida mujassam" degan suhbat- maqolasi ham qiziquvchilarda yaxshi

taassurot qoldirganidan xabardormiz. G.Matyoqubovanning taniqli bir shoira bilan qilgan suhbat- maqolasini ham tilga olib o'tish joizdir. Bu taniqli shoira Sharigul Fayzullayeva bilan "Ko'ngil kengliklarida" degan suhbat- maqola suhbatning hajmi shu darajada kattaki, bir salmoqli kitobni eslatadi, uni faqat shartli ravishda maqola deyish mumkin. Suhbatda Qoraqalpog'iston hayoti, adabiyoti va madaniyati bilan bog'liq juda ko'p masalalar suhbat mavzusiga aylangan. Har ikki ijodkorning Qoraqalpog'istonga mehri, adabiyoti va madaniyati jonkuyari ekanligi suhbat mazmunidan ko'rinib turadi. Bunday suhbat-maqolalar adabiy jarayonda juda kam uchraydi. Kelgusida adabiyotning bu janri kengroq yoyilsa, ayni muddao bo'lardi degan tilakni bildirmoqchimiz.

Bitiruv malakaviy ishimizning xulosasida ba'zi masalalargagina to'xtaldik. Holbuki, bu ko'p qirrali ijodkor haqida yanada ko'plab xulosaviy fikrlarni aytish mumkin edi. Tadqiqotimizdan kelib chiqadigan eng asosiy xulosa shundan iboratki, G.Matyoqubova ikki adabiyotga, ikki adabiyotning publitsistika janriga tengday xizmat qilib kelayotgan adib. Bu ijodkorning yana bir fazilati shundaki, u qoraqalpoq tilini o'z ona tili o'zbek tilini bilganday yaxshi biladi. Har ikki adabiyotdan tengday tarjima qilish bilan shug'ullanib kelayotgani uning ijodiy fazilatlaridan biridir. Ijodkorning shu fazilatlari uchun ham uni ham qoraqalpoq, ham o'zbek ijod ahli, olimlari, tanqidchilari qolaversa, uni birday qadrlaydi, ijodiga hurmat bilan qaraydi. G.Matyoqubova kelajakda ham ijodida publitsistika janriga alohida ahamiyat berib uning taraqqiyoti uchun g'amxo'rlik qiladi, har ikki adabiyotda bu janrning yanada yuksalishi o'zining salmoqli xissasini qo'shadi deb ishonamiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. I.A. Karimov. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. Toshkent, 2008y.
2. I.A.Karimov. Adabiyotga e'tibor, ma'naviyatga, kelajakka e'tibor.
T, 2009 y.
3. Каримов И.А. Туркистон умумий уйимиз. Тошкент, 1995.
4. Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари интимоқда. Тошкент, 1999.
5. Каримов И.А. Миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Тошкент, 1993.
6. Маънавият гулистони. Тошкент, 2002.
7. O.Sharafiddinov. Ijodni anglash baxti. Toshkent, 2004 y.
8. U. Normatov. Ijodkorning haroratli so'zi. Toshkent, 2015 y.
9. N. Rahimjonov. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati. Toshkent, 2007 y.
- 10.N. Rahimjonov. Istiqlol va bugungi adabiyot. Toshkent, 2012y.
- 11.M. Qo'shjonov. Jayhun jilolari. Toshkent, 2008y.
- 12.G. Matyoqubova. Yo'llaringga chiqdim. Nukus, 1997y.
- 13.G. Matyoqubova. Muhabbat yurti. Toshkent, 2002y.
- 14.G. Matyoqubova. Izlaganlarim. Toshkent, 2000y.
- 15.G. Matyoqubova . Vatan ruhi. Nukus, 2011y.
- 16.G. Matyoqubova. Ota uyim. Toshkent, 2014y.
- 17.G. Matyoqubova. Uyg'onish nashidasi.Toshkent, 2016y.
- 18.K. Quramboyev, G.Quramboyeva. Gul bor Guliston ichinda. Toshkent, 2016y.
- 19.K. Quramboyev, G.Quramboyeva. Gul bar Gulistan ishinde. Nukus, 2018 y.
- 20.U. Berdiboyev. Qoraqolpog'istondagi o'zbek ijodkorlari asarlarining o'ziga xosligi.

Internet materiallari

21. www.ziyouz.com

21. [www. literature.uz](http://www.literature.uz)

22. [www. ziyouz/ uz](http://www.ziyouz.com/uz)